

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'zbek filologiyasi yo'nalishi 445-guruh bitiruvchisi

QO'LDASHEVA DILNAVOZning

“SHAVKAT RAHMON SHE'RLARIDA BADIY DETAL”

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: **Y. Solijonov.**
filologiya fanlari doktori.

Farg'ona – 2013

Bitiruv-malakaviy ish kafedraning 2013-yil_____yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

A. SABIRDINOV.

Taqrizchilar:

G. HAYDAROVA,
3-sonli AL ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi.

MUNDARIJA:

I. Kirish. Mavzuning o'rganilishi.	3-bet.
II. Birinchi bob: Shavkat Rahmon she'riyati va uning shakllanish jarayoni....	8-bet.
1.1. Shoir ijodining mavzu va muammo doirasi.	11-bet.
1.2. Shavkat Rahmon she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari.	25-bet.
III. Ikkinchi bob: Shavkat Rahmon she'rlarida badiiy detal.	32-bet.
2.1. Obrazlar silsilasi va ularning yuzaga kelishida badiiy detalning o'rni...	41-bet.
2.2. Istiqlool mavzusini yoritishda shoirning badiiy detallardan foydalanish mahorati.	55-bet.
IV. Xulosa.	77-bet.
V. Adabiyotlar ro'yxati.	80-bet.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi adabiyotshunoslik har bir tadqiqotchidan o'tkir zehn, sinchkovlik, ayniqsa, yuzaga chiqayotgan ilmiy kashfiyot va yangiliklardan xabardor bo'lishni, umuman, keng qamrovli ish olib borishni talab etadi. Bu esa milliy adabiyotimizning boy ma'naviy xazinasini chuqur o'rganishimiz, uni anglashimiz uchun xizmat qiladi. Muhtaram Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, "Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot bu yangicha fikrlash va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi"¹. Shuning barobarida, ilmiy, ijodiy izlanishlarning samarasi o'laroq kashf etilgan har bir yangi fikr, tadqiqotchilarning adabiy masalalar yuzasidan berayotgan yangicha xulosalari adabiyotshunoslik bazasining to'ldirilib, mukammallashtirilib borilishiga turtki bo'ladi. Ana shu jihatdan olib qaraganda, mazkur bitiruv malakaviy ish uchun tanlangan "Shavkat Rahmon she'rlarida badiiy detal" mavzusining o'rganilishi adabiyotimizning yana bir muhim masalasining tadqiq etilayotganini ko'rsatadi.

Mavzuning **yangiligi** haqida aytish kerakki, adabiyotshunoslikda har bir so'z ustida uzoq mulohazalar olib borilishi, ya'ni ijodkor tomonidan aytilgan har bir muhim so'z tadqiqot uchun ob'yekt bo'lishi mumkin. Badiiy detalning o'rganilishi ham fan uchun yangilik hisoblanmaydi. Biroq bu aynan badiiy detal o'rganish ob'yekti sifatida olinib, tadqiq qilingan, degani emas. Shu sabab mazkur BMIda, birinchidan, badiiy detal, uning qo'llanilish doirasi, kompozitsion vosita sifatida badiiy asarda tutgan o'rni Sh. Rahmon she'riyati misolida tadqiq etildi. Ikkinchidan, Shavkat Rahmon ijodining badiiy detal bilan bog'liq jihati alohida o'rganildi.

Mavzuning **o'rganilish darajasi.** Mazkur ishni olib borish uchun manba yig'ish jarayonida biz o'rganayotgan mavzu yuzasidan alohida ilmiy qarashlarni, yaxlit xulosani ko'rmadik. Lekin Shavkat Rahmon she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish davomida unda birinchi darajaga ko'tarilgan badiiy detallar va ulardan obrazlarning o'sib chiqish holatiga oid ma'lum xulosalar

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 41-бет.

berilgani aniqlandi. BMIning o'rganilishi davomida badiiy detal va uning Shavkat Rahmon she'riyatidagi o'rnini belgilashga oid manbalar – kitob, maqola va taqrizlar, adabiy suhbatlar orqali ishga doir ma'lumotlarga ega bo'lindi. Jumladan, mazkur tadqiqot ishining bajarilishida D. Quronov, X. Umurov, T. Boboev, E. Xudoyberdiyev kabilarning nazariy qarashlariga, shuningdek, adabiyotshunos olimlar Y. Solijonov, U. Hamdamov, Q. Yo'ldoshev, Ra'no Mullaxo'jayevalarning ilmiy, badiiy mulohazalariga asoslanildi. Q. Yo'ldoshevning “Zulfiqor ruh manzillari”, U. Hamdamovning “Shoir –“tuzalmas” haqiqatparast”, M. Namozning “Tumanlarni qo'porar tog'lar” singari o'nlab adabiy-ilmiy maqolalardan samarali foydalanildi. 2012 yilda chop etilgan “Shavkat Rahmonni xotirlab” nomli yodnomalar, taqriz-tahlil, suhbatlardan tashkil topgan to'plamdan olingan ma'lumotlar shoir she'riyatiga xos jihatlar va undagi badiiy elementlarni keng ko'lamda yoritishga ko'mak berdi.

Adabiyotshunos olim Y. Solijonovning “Hozirgi o'zbek lirikasi” o'quv-uslubiy qo'llanmasida Shavkat Rahmonning erk kuychisi ekanligi va shoir o'zining erkka tashna qalbi iztiroblarini kun, tun, egilgan bosh singari timsol va detallar bilan ifodalagani bayon qilingan. Olim U. Hamdamov muallifligidagi “Yangi o'zbek she'riyati” kitobining 2-bob “Lirikaning mafkura tazyiqidan xalos bo'lishi” nomli uchinchi fasli aynan Sh. Rahmon she'riyatining mustaqillikkacha bo'lgan qiyofasi, u murojaat etgan talay obraz va detallar xususida boradi. Ushbu manbalar mazkur ishda Istiqlo'l mavzusini yoritilishida Sh. Rahmonning badiiy detal qo'llash mahoratini to'laroq ochilishiga xizmat qildi. Ayniqsa, shavkatrahmonshunos olimlar I. G'aniev, N. Afoqova, A. G'anievalar hammuallifligida chop etilgan “Shavkat Rahmon olami” kitobida shoir uslubining o'ziga xos qirralari, undagi obrazlar silsilasi, badiiy detal va ramzlarning qo'llanilishi shoirning “Saylanma”si misolida tadqiq qilingan. Ushbu kitobdagi ilmiy asoslangan fikr va xulosalar yordamida ish yanada boyitildi.

Alohida ta'kidlab o'tish kerakki, **kh-davron.uz** internet sayti Shavkat Rahmon ijodi haqidagi eng ko'p ilmiy, badiiy, publitsistik materiallarni o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlar bazasidir. Bundan bir necha o'n yillar avvalgi,

gazeta-jurnallar sahifalarida yoritilgan o'ndan ortiq maqolalar mana shu internet saytidan olinib, foydalanildi. Qolaversa, **ziyonet. uz**, **e-adabiyot. uz** saytlaridan to'plangan ma'lumotlar ham ishning yanada mukammal yozilishiga, ilmiy asoslanishiga ko'maklashdi.

BMIni tadqiq qilish davomida adabiyot nazariyasiga oid manbalar ko'zdan kechirilganda ma'lum bo'ldiki, badiiy detal haqida so'z yuritgan olimlar nasriy asarlardagi detallar haqida fikrlab, lirikadagi badiiy detal haqida deyarli to'xtalmaganlar. Biroq keltirilgan nazariy ma'lumotlarni nazmga ham birdek taalluqli deb ayta olamiz. Nazmda ham, nasrda ham detalning badiiy funksiyasi o'zgarib qolmaydi. Adabiyotshunos olim T. Boboev badiiy detalni sharhlar ekan, uni "hayotni tipiklashtirishda, badiiy ifodalashda, qahramon xarakteri qirralarini ochishda, asar g'oyasini ifodalashda, uning emotsional ta'sir kuchini oshirishda"¹ katta rol o'ynashini ta'kidlaydi. Demak, detal deganda, muayyan asar to'qimasidagi predmet, belgi, chizgi kabilarni tushunamiz. Biroq asardagi har qanday predmet, belgi, chizgilar ham badiiy detal bo'la olmaydi. Detal, odatda, lo'nda, aniq, yorqin va obrazli bo'lib, asosan, tasvir ob'yektini sintezlashtirib ko'rsatishga xizmat qiladi. U badiiy asar kompozitsiyasida o'z o'rnini topgandagina o'z vazifasini o'tay oladi, yozuvchini ko'pso'zlikdan, "adabiy laqmalik"dan saqlaydi. Qisqa-yu sermazmunlikka erishish badiiy detalning xarakterli xususiyatidir"².

Olim E. Xudoyberdievning fikricha, "detal asardagi barcha voqealarni bog'lab turuvchi, muallif maqsadini ta'kidlovchi vosita vazifasini bajaradi. A. Qahhor "Qiziq detal va chiroyli parcha shu qadar asarning qimmatini oshiradiki, shu qiziqarliligi, shu chiroyliligi bilan bilan g'oyaning tashviq qilinishiga xizmat qilsa", deydi"³.

Badiiy asarda rango-rang detallar qo'llanilishini hisobga olib, ularni quyidagi turlar ichiga birlashtirish mumkin:

- 1) predmet detal;

¹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2002. 74-бет.

² Шу манба. 74-бет.

³ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: "ЎАЖБНТ" маркази, 2003. 101-бет.

- 2) ruhiyat detal;
- 3) portret detal;
- 4) nutqiy detal.

Biroq bu yakuniy xulosa emas. Badiiy detallarni turlarga ajratish bo'yicha izlanishlar davom etmoqda. Eng muhimi, qaysi turga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar, uning mavqeyi badiiy asar g'oyasini shakllantirishdagi vazifasi, obrazlarni xarakterlashdagi ishi bilan belgilanadi. Shuningdek, u asarning emotsional qiymatini oshirishga, kitobxonning estetik didini o'stirishga va umuman hayotni tipiklashtirib ko'rsatishga xizmat qilishi kerak. Sh. Rahmon she'rlaridagi badiiy detallarni o'rganishda ham uning bu muhim xususiyatlari yodda tutildi.

BMI mavzusining **dolzarbligi** shundaki, birinchidan, badiiy detal, uning qo'llanilish doirasi, kompozitsion vosita sifatida badiiy asarda tutgan o'rni Sh. Rahmon she'riyati misolida tadqiq etildi. Ikkinchidan, Shavkat Rahmon ijodining badiiy detal bilan bog'liq jihati alohida o'rganildi.

Tadqiqot badiiy detal va uning vazifalarini o'rganish, uning o'zbek she'riyatidagi rivojini Sh. Rahmon ijodi asnosida ko'rsatib berish, shoirning she'r mavzusi va muammo ko'lamiga ko'ra alohida badiiy detallar qo'llash uslubini ochib berish, shu asosda shoirning mahorati haqida umumiy xulosalarni berish kabi **maqsad va vazifalarni** o'z ichiga oladi.

BMIning **ilmiy va amaliy ahamiyati** shundaki, unda Shavkat Rahmon she'riyatiga xos xususiyatlar, shoir she'rlarining mavzu va muammo doirasi, badiiy detalning o'zbek she'riyatida keng o'rin egallashiga va shakllanishiga qo'shgan hissasi, ayniqsa, badiiy detalga she'rning tematikasiga ko'ra murojaat etishi, shoirning bu boradagi alohida uslubiy qirralarining oydinlashishi kabi qator masalalarga tavsif va tahlil asosida yondoshildi. Mazkur ishning natijalari va berilgan xulosalardan o'zbek she'riyatiga oid yangi ilmiy tadqiqotlarda, jumladan, davr va she'riyat masalalari, lirik qahramon ruhiyatini, ayniqsa, mustaqillikkacha bo'lgan davrda Istiqlolni turli ramz va timsollar, detallar vositasida kuylash an'anasini o'rganishda, shuningdek, o'zbek lirikasiga oid o'quv qo'llanmalari yaratishda foydalanish mumkin.

BMI **tuzilishi** kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

BIRINCHI BOB.

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATI VA UNING SHAKLLANISH JARAYONI.

O'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ovozi va va ijod olami bilan nom qozongan, she'riyatimiz maydonida o'z ijod maktabini yaratib ketgan zabardast shoirlarda biri Shavkat Rahmondur. Shoir o'tgan asrning 80-yillarida kuyunchak ovozi va isyonkor ruhi bilan adabiyotimizda alohida ko'zga tashlandi. U nainki har bir she'r, balki har bir so'z ustida mahorat bilan ishladi. Bir-birini takrorlamaydigan satrlar, unutilmas badiiy obrazlar yaratish mahoratiga ega bo'lgan Shavkat Rahmon ijodi o'zbek adabiy tanqidchiligining yuksak e'tirofi va bahosiga musharraf bo'ldi. Shoir boshqa ijodkorlardan farqli o'laroq, faqat o'z kayfiyatini tasvir etish bilangina chegaralanmasdi, u hamisha millatning dardi, xalqining armonlarini ifodalashga intilgan edi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov buni quyidagicha izohlaydi: “Shavkat Rahmonning ilk she'rlaridan tortib so'nggi misralarigacha qalbi, tabiati, butun borlig'i vaziyatga qarab tovlanavermaydigan mustahkam e'tiqodi, sodda va mag'rur, kurashchan va jasur siymosi mana men deb turibdi”.¹

Odatda, ijodkorlarning ilk to'plami, ijoddagi ilk qadamlaridan sezilarli salmoq talab etilmaydi. Chunki dastlabki mashqlarning xom bo'lishi mumkinligi haqidagi haqiqatga o'rganib qolingan. Biroq Shavkat Rahmon “Ilk she'rlari bilan ommaning diqqatiga, e'tiboriga tushdi. Bu kamdan-kam ijodkorlarga nasib etishi mumkin bo'lgan baxt”² edi. Qolaversa, uning ijodda o'z so'zini ayta olishga o'rgatgan va dastlabki ilhom uchqunlarini bergan tug'ilgan tuprog'i – O'shni ham unutmaslik kerak. Chunki aslida: “Shavkat Rahmon shoir sifatida O'shda shakllangan edi. To'g'ri, u Moskvada – Adabiyot institutida ta'lim oldi, Toshkentda ham ustozlaridan ko'p narsa o'rgandi. Biroq u shaxs sifatida O'shda shakllangan edi. 19-20 yoshlarida SHAXS bo'lib shakllanadi, keyin o'sha shaxs sayqallanadi, o'zligini namoyon qiladi”³

¹ Шавкат Раҳмонни хотирлаб. –Тошкент: Шарқ, 2012. 56-бет.

² Отажон Норов. Уйғоқ виждон қўйчиси. kh-davron.uz сайти.

³ Шайх Алоуддин Мансур. ZiyoNet.uz сайти.

Shoirning birin-ketin nashr etilgan she'rlarini mutolaa va tahlil qilish davomida uning ana shu ilk manbalardan yuksalganiga iqror bo'lamiz. Shavkat Rahmonning she'rdan she'rga o'sish tadrijini, she'riyatining shakllanishini alohida tadqiq qilgan adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdam quyidagi mulohazalarga to'xtaladi: "Munaqqidlar shoirlar haqida gapirisharkan, «u she'rdan she'rga, kitobdan kitobga o'sib bordi» degan iborani ko'p qo'llashadi. Agar Shavkat Rahmon ijodiga shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, quyidagilarni alohida ta'kidlab aytish joizki, u adabiyotga ilk she'rlaridanoq o'z qiyofasi, o'z badiiy so'zi bilan kirib kelgan. Shoirning 1978 yilda ilk to'plami — «Rangin lahzalar» nashrdan chiqdi. Shavkat Rahmon ilk to'plami bilanoq she'riyatga o'z so'zi va ovozi bilan kirib keldi. Jajjigina kitobni varaqlar ekanmiz, biz bir vaqtning o'zida ham vatan va tabiat manzaralari aks ettirilgan, yosh qalbning muhabbat, hayot va o'limga nisbatan bo'lgan jo'shqin munosabatlari ifoda etilgan lirikasiga, ham jamiyatning va dunyoning dolzarb muammolariga bag'ishlangan zalvorli ijtimoiy she'riyatga duch kelamiz. Shoir o'zining kimligini birinchi urinishdayoq o'quvchiga tanita olgan. Uning birin-sirin dunyo yuzini ko'rgan «Yurak qirralari» (1981), «Ochiq kunlar» (1984), «Gullayotgan tosh» (1985), «Uyg'oq tog'lar» (1986), «Hulvo» (1987) kabi she'riy to'plamlari 1989 yilda esa Shavkat Rahmon ulug' ispan shoiri Federika Garsia Lorkaning «Eng qayg'uli shodlik» deb atalmish to'plamini asliyatdan tarjima qilib nashr ettirdi. Nihoyat, shoirning vafotidan bir yil keyin, lekin uning o'z qo'llari bilan tartib bergan «Saylanma»si 1997 yilda o'quvchilar qo'lga borib etdi. Mana, shoirning bor-yo'q bisoti. Lekin hajman juda oshib-toshib ketmagan shugina merosning ma'naviy yukini ko'tara olish uchun o'quvchi juda uzoq, ba'zan hatto bir umr tayyorgarlik ko'rishi mumkin, shundayam omad kimga kulib boqadi, kimga yo'q.

Shavkat Rahmon umrining so'nggi yillarida tartib bergan kitobi uning "Saylanma"sidir. "Kitobdan faqat ilgari chop etilgan to'plamlaridan saylangan lirik-falsafiy she'rlargina emas, balki O'zbekiston mustaqilligi arafasida va undan keyin, o'lim to'shagida qog'ozga tushirilgan (shundan ba'zilar ilk bora e'lon qilinmoqda) badiiy mo'jizalar ham o'rin olgan. O'ylaymizki, vido kitobi XX asr

o'zbek she'riyatida, umuman, umumturkiy adabiyotda chinakam hodisa bo'lgan SHOIR shaxsiyati va uning ko'ngil kengliklari-yu yurak qirralari to'g'risida o'quvchiga to'la-to'kis tasavvur beradi".¹

Chindan ham qalamini eng katta g'animga qarshi ham kurasha oladigan qurol deb bilgan shoir umrining so'nggi yillariga qadar ham o'zi sevgan tog'lar kabi o'sishda, shakllanishda davom etaverdi. Shavkat Rahmon otliq ijod bog'idan qolgan sarxil mevalar har gal totib ko'rilganida hayratlantiradi, g'aflatdan uyg'otadi, yig'latadi ham. Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon she'riyati ilk she'rlardan tortib, umrining so'nggi kunlarida yozilgan misralarga qadar shakllanishda davom etdi.

¹ Улугбек Ҳамдам Шоир – “Тузалмас” ҳақиқатпараст. /Шавкат Раҳмонни хотирлаб. –Т.: Шарқ, 2012. 114-115-бет.

SHOIR IJODINING MAVZU VA MUAMMO DOIRASI.

Shavkat Rahmon she'riyatining mavzu ko'lami juda keng. Shoir o'zi kuylagan har qanday mavzuda yonib, to'lqinlanib, joiz bo'lsa, dildan azoblanib kuylashga o'rgangan. U, ayniqsa, ijtimoiy hayot motivlarini keng ko'lamda aks ettirgan. Shavkat Rahmon qalam tebratgan asosiy mavzular va shoir keskin bahslar qilgan muammolar sirasiga Vatan, erk, tabiat, inson va jamiyat, ishq, baxt va armon, hatto o'lim kabi eng e'tiborga molik mavzularni qayd etish va tahlil qilish lozim. Quyida bularga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Shavkat Rahmon ijodining gullagan davri eng og'ir kunlarga – mustabid Sho'ro tuzumining so'nggi yillariga to'g'ri keldi. Xalqning og'ir ahvoli, ham siyosiy, ham iqtisodiy va ijtimoiy qaramlikka qarshi isyonkorlik ruhi she'rga ko'chgani sir emas. Buning oqibatida she'riyatda, xususan Shavkat Rahmon ijodida **ijtimoiy mavzuning** muhimroq o'ringa chiqqanini ko'ramiz. Ammo shunisi e'tiborliki, Shavkat Rahmon she'rni publitsistikaga – fikrning qurboniga aylantirib yubormadi. Haqiqatga, sadoqatiga sodiq qoldi.

Xalqimiz hayotida kechayotgan voqealarning hech biri Shavkat Rahmon nazaridan chetda qolgan emas. U har doim she'rga xos jasorat bilan birinchilardan bo'lib yaqinlashib kelayotgan har qanday xavfdan elni ogoh qildi, har qanday zulmga, jaholatga qarshi turadi. “Bir vaqtlar do'sti yo'qligidan kuyinib she'r yozgan shoir endi qurib tugayotgan dengizning hasratida. Millatining manqurtlashib, jismonan zaiflashib borayotganidan alamda. U yana so'zi – she'ri bilan birga bu dardu mashaqqatlarni boshida o'tkazadi, u orqali hasratini to'kib soladi:

*...So 'nggi zuryodimni zaharlar qullar,
so 'nggi chechaklarim aynib so 'lajak.
Ey, beklar,
zahar ich – o 'zbeging qolib,
o 'zgaga bo 'ysunding,
o 'lganing shuldir.*

*Shundanmi, boshida teridan qolip,(bu –manqurt degani!)
saksovul singari mayishgan budun.*

Shoir zamon muammolari – millatning dardini ifodalar ekan, tarixga bot-bot murojaat qiladi:

*Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov
komillik qidirgan jasur erlarga.
Ilavsin yigitlar,
bobur yigitlar
sajdaga bosh qo'ydi teskari qarab,
gullarni kemirib yig'ladi itlar,
buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab.*

Shavkat Rahmon she'rlari faqat dilning emas, jasoratning ham tarjimonidir. Shoir ijodini kuzatib borgan o'quvchi uning she'rdan-she'rga yuksalib, kurashchanligi ortib borganligini ko'radi.”¹ Ijtimoiy hayot va zamon muammolarini she'riyatda aks ettirmaslikning iloji bo'lmagan davrlar ham bo'lganligini unutmagan holda ta'kidlash joizki, “... she'riyat ham, xususan, XX asr o'zbek she'riyati ham qaysidir ma'noda ijtimoiylashdi. Binobarin, Shavkat Rahmon ham, ko'pincha, ijtimoiy mavzularga qo'l urishga majbur bo'ldi. Oqibat shu bo'ldiki, hayotning shirin va adolatli bo'lishiga halaqit berayotgan har qanday narsa va kimsalar she'riyatga ko'chib o'tdi, shoirning dushmanlari ko'paydi:

*Dushmanim ko'paydi,
hatto, o'liklar
Bahorni sog'ingan qutlug' oylari,
hilvatda yig'ilib yurdi sho'rliklar
Changalda bo'hton-u ig'vo loylari...*

Biroq she'riyatga aynan shu xil kayfiyatni kirib kelishi poeziya deb atalmish yuksak olamni qaysidir ma'noda oyog'idan tortib erga tushirib qo'ydi. Natijada biz, ko'pincha, she'r o'qirgan, qalban yuksalish va poklanish o'rniga turmushning deyarli har kuni o'zimiz duch kelayotgan chirkin nuqtalariga takror ro'para kelib

¹ Раъно Муллаҳўжаева. Шавкат Раҳмон – “Шоирлик – қисмат”. <http://e-adabiyot.uz> сайти

qiynalamiz. Lekin ayni chog'da "buning uchun shoirdan o'pkalash ham noto'g'ri bo'lar, chunki unda simobdek qaynab turgan ijtimoiy mavzularni qo'yib, gul va bulbul dunyosiga sho'ng'ib ketolmay qiynalayotgandir", degan o'ylar ham boshimizda aylanadi. Muhimi, Shavkat Rahmonga ijtimoiy mavzuni shaxsiy mavzu sifatida yoki buning aksi: o'z shaxsiy dardini ijtimoiy dard darajasida kuylay olish baxti nasib etgan. Ya'ni u ko'pning dardini o'z ko'ngil prizmasidan o'tkazib, uni shaxsiylashtira (personifikatsiya) bilgan. Natijada umumdard shaxs dardiga, "men" dardiga aylangan."¹ Aytish mumkinki, shoirning ijtimoiy ruhdagi barcha she'rlari yurak hayqiriqlari bo'lib, aksariyat millat, xalq, odamlarning uxloqligidan o'kinishlar, yangi va uyg'oq hayotga chorlovlardir.

Shoir she'riyatining bosh mavzusi – **ERK**. Uning negizida yurt ozodligi, millat hurligi, Turkiston va turkiylar dardu g'ami, Vatanning o'tmishi, buguni va ertasi uchun qayg'urish hissi yotadi. Tosh haqida, gul haqida, baxt yo armon haqida yozganida ham uning erkka tashnaligi sezilib turadi. Hatto manzara she'rlarining umumiy pafosida ham erk va ozodlik g'oyasi yashirin. Shavkat Rahmon erk mavzusini kuylashda, shubhasiz, mujohidlik, jo'mardlik, mardlikka oshuftalik; xoinlik, qo'rqqoqlik, sotqinlik, shaxssizlikdan nafrat singari ustuvor yo'nalishlarga tayanadi.

“Yetmish yildan ortiq umr ko'rgan xalqlar turmasi - sobiq Ittifoqda millatlar erki va tengligi shunchaki bir soxta ta'limot edi. By zulm saltanatining hamma joyi soxta, yolg'on shior - «Hamma narsa inson uchun, uning baxt-saodati uchun», «Barcha millatlar tent», «Yashasin leninchi g'oyalar», «Yashasin sotsializm», «Kim biz bilan emas, bizga dushman» kabi safsatalar bilan to'la, bijg'igan, hilvirab ketgandi:

*Qular qonda suzgan qasrlar,
judab yitar sangin saltanat,
So'qir bo'lar acpiy nahsdan
bino bo'lgan yovuz shaytanat.*

¹ Улуғбек Ҳамдам. Шоир – “гузалмас” ҳақиқатпараст. //Шавкат Раҳмонни хотирлаб. –Т.:Шарқ, 2012. 121-bet.

«Asriy nahs» - bu Chor istilosi va uning murakkab davomi bo'lgan bolshevizmning 130 yillik bosqinchilik zulmi, kasofati - nahsi. Tarix ne-ne bosqinchi imperiyalarni sovritib, judab, yo'qolib, yer bilan yakson bo'lganiga guvoh. Bu ham oldingi yovuz saltanatlardek qismatga ega. Chunki u yovuzlik, bosqin siyosati, necha asrlar o'z qo'li, fe'li, qilmishi bilan bino qilgan, doya bo'lgan o'z zulmi, iflosligi, yuvuqsizligidan ko'r bo'ladi, qulaydi:

Kelar,

kelar buyuk mehrdan

kiftlar kiftga bosilajak kun,

G'amdan forig' jez kallalar ham

ko'kraklarga osilajak kun.

«Kelar» so'zining ikki bor takrori botinida ertangi kunga qat'iy ishonch, xitob, chorlov pafosi bor. Kiftlar kiftga bosilajak kun - bu ulug' birlik orzusi. Chunki ulug' birlikka maslaksiz erishib bo'lmaydi. Bu bandda butun bir yovuzlik saltanatida ezilgan millatlarga xitob, birlashishga davat pafosi ustuvor:

Porlar toshna do'ngan so'zlarim,

Porlar mangu odamiy, ruhim,

Porlar Haqqa tashna ko'zlarim,

Xudo bergan mangu anduhim,

yorug' anduhim... (-B. 155).

Anduh – odamzodning butun bir dardu-g'ami. Shoir uchun yorug' anduh – bu yurt, millat ozodligi, istiqloli, yovuzlik saltanatining so'qir bo'lib, o'z nahsidan qulash kuni. Lekin hozircha lirik qahramonning isyonkor, erkparvar so'zlarini tinglaydigan jamiyat, shaxs yo'q. Shu bois so'zlari, orzulari vaqtincha toshga do'ngan. Bir kun keladi, imperiya qulasa, uning ham ruhi chin odamiy qiyofa, hurlik kasb etadi. Mustamlaka mamlakatda odamiy ruh bo'lmaydi, bo'lsa-da, notavon, muztar, zabun, nochor, ezilgan bo'ladi. Shu maqsad, shu a'mol, e'tiqod yo'lida u Haq – Alloh taoloning ham marhamat, ham shafqat, ham qo'llashidan, ham haqiqatning qaror topishidan umidvor.”¹

¹ И. Ганиев, Н. Афокова, А. Ганиева. Шавкат Рахмон олами. –Тошкент: Академнашр, 2013. 74-75-bet.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Istiqlol mavzusi shoir she’riyatining asosini tashkil etadi. Shu bois bu haqidagi batafsil mulohazalarimizni ikkinchi bobning uchinchi faslida bayon etamiz.

Shavkat Rahmon she’riyatida eng ko’zga ko’ringan va katta ko’lam kasb etuvchi mavzulardan biri **VATAN** mavzusidir. Aslida shoir hamma mavzuda she’r yozganida – u xoh daraxt haqida bo’lsin, xoh tosh haqida bo’ladimi, kuylab yozadimi, yig’labmi, barida shoirning Vataniga bo’lgan mehr-muhabbati yashaydi. Masalan, shoirning “Rangin lahzalar” kitobi mo’jazgina “Vatan” to’rtligi bilan boshlanadi:

Joylashgansan shunchalar chuqur...

O’z tubiga yashirgan yurak.

Senga yetib bormaklik uchun

Uzun umrim yetmasa kerak.¹

Dastlabki o’qishdayoq vujudingizning allaqayerlarini titratib yuboradi. Tezda yod olasiz. Bir qarashda juda sodda, ammo, ona yurtga bo’lgan mehrning eng samimiy iqroridir. “She’riyatga ko’chgan shaxsiyat” nomli maqolasida Nurulloh Muhammad Raufxon shoirning aynan mana shu she’ridan olgan hayratini quyidagicha ifodalagan edi: “...u paytlar vatan haqida qanaqa she’rlar yozilgani va o’qilgani ko’plarga qorong’i. Vatan, ko’pincha, yuzalarda bo’lardi, vatanni sevish ham yuqorilardan talab etilgani uchun o’sha yuqorilarga yoqadigan tarzda yozilar va bayon qilinar edi. Shavkat Rahmonning Vatani esa juda chuqurlarda (buning ustiga, odamni o’ylantiradigan uch nuqtasi bilan) joylashgan. Yerning emas, dengizlarning emas, yurakning chuqurlarida. U ko’z-ko’z qilinmaydi, uni “yurak o’z tubiga yashirgan”. Yomon ko’zlardan, yomon niyatlardan va soxta muhabbatlar-u soxta sifatlardan asragan. Axir soxta muhabbat izhorlari uni xo’rlashi mumkin, u bunday yuzakiliklardan baland turadi. Chuqurliklarda yuksaklik xos unga! Unga hatto sevgi izhor qilinmaydi. Minbarlarni egallab, ko’kraklarga mushtlab u haqda jar solinmaydi. U yuraklarda bo’ladi, unga bog’liq tuyg’ular tomirlarda oqadi. U sog’inib izlanadi, axtariladi. Ayniqsa, mustamlaka

¹ Ш. Раҳмон “Рангин лаҳзалар”. –Т. , 1978. 10-bet.

sharoitida. Ayniqsa, xalqning erki o'z qo'lida bo'lmaganida. Uni chinakam sevgan kishi uni topish va anglab etish uchun qiyin safarga o'tlanadi. U shunchalar chuqurlarda joylashgani, yurak uni shunchalar tubiga yashirganidan "unga etib bormaklik uchun uzun umr yetmas"ligi ham mumkin...

Shavkat Rahmon butun ijodi bilan, butun o'y-hayoliyu qayg'ulari, dardlari bilan shu Vatan sari – mushtdekkina yuragi tub-tubiga yashirgan, o'zigina taniydigan, suygan va sog'ingan ana shu sirli makon sari yurdi, talpindi. Bir paytlar shirin orzular og'ushida "Senga yetib bormaklik uchun Uzun umrim yetmasa kerak", deb chamalagan yigirma besh yasharlik yosh shoir taqdirning buyuk yozug'i ila, qirq olti yoshida, og'ir kasalga chalinib, o'lim bilan olishib yotgan pallalarida bitilgan (balki) oxirgi she'rida ortida qolayotgan olamga "Abadiyat oralab O'shga ("Vatanga" deb o'qing. – N.M.R.) qachon etamiz? deb savol qo'ydi!

Ayt, ey xasta bulbulim,

O'shga qachon etamiz?

Yashil bog'lar sarg'ardi,

Mag'iz bo'ldi gujumlar.

Oh, voy, muncha yo'l og'ir,

Bulbulim...

Ulkan soat o'rtasida

Madorim yo'q yurmoqqa,

Qashqirlar davrasida

Sudralaman turmoqqa.

Shunda qolib ketsam gar

netamiz?

Abadiyat oralab

O'shga qachon etamiz?

Qorli tog'lar bag'rida

Begim – O'shim ko'rindi,

Sulton – O'shim ko'rindi...

“Ey xasta bulbulim...” derkan, Shavkat Rahmon yurakni – o’zi ardoqlab, umr bo’yi suyib-sog’inib yashagan Vatanni “o’z tubiga yashirgan yurak”ni nazarda tutadi. Va: “Ey yuragim – ey xasta bulbulim, bu ahvolda Vatanga qachon etamiz?!” deydi. Vatanni axtarib yo’lga chiqayotganida shoirning bu tasmoli tagida qachondir bir kun Vatanga yetishish ilinji ham bor edi, umidvorlik bor edi, lekin shoirning yuragiga yashiringan Vatan chindan ham juda-juda chuqurliklarda ekan, afsus, unga yetib borishga Shavkat Rahmonning taqdirda belgilangan umri etmadi. Shoir bir umr talpingan u Vatan qanday vatan edi? Uning o’xshashi, cheki-chegarasi bormi o’zi? Qayerda boshlanib qayerda tugardi u Vatan? Tugarmidi? Izlagan, topadigan narsami U? Vatanni topdim, degan bormi bu dunyoda? Qancha yil yashash kerak Uni topish uchun? Vatanning nimaligini bilgan bormi?..

*“Ko’zingizni oching, qo’rqmang,
ziyodan qamashsin, og’risin, mayli,
mayliga yashamak bo’lsin qiyinroq,
ochiqligi tufayli”*

satrlarining Shavkat Rahmon ijodi o’zak masalasiga – Vatan mavzuiga bog’liq joyi yo’qmi? Bor! Bor bo’lganidayam to’g’ridan-to’g’ri bog’lanadi. Axir, Vatan sari faqat ochiq ko’z bilan boriladi! Vatanni faqat ko’zi ochiqlargina taniydi! Chinakam vatanparvar ko’zini yirikroq ochadi, mayliga, ochiqligi tufayli yashashi qiyinroq bo’lsin, mayliga ko’zlari qamashsin va yo og’risin”.¹ Shoir Vatanni shunchaki sevibgina qolmay, uning taqdiri uchun kuyikadi ham. Shu bois u odamlarni ko’zi ochiq yashashga chaqiryapti. Zero, xira bosgan yoki g’aflatda qolgan ko’zlar ertangi kunga qanday nigoh tashlay oladi, uxloq ko’zlar bilan buyuk qadamlar bosib bo’larkanmi? Shu kabi savollar shoirni bir umr o’rtantirib kelgan.

Shoir 1984 yilda bitilgan she’rida haqli ravishda quyidagi misralarni bitadi:

*Men orom borligin unutib qo’ydim,
bag’rimga chaqinlar tegdi daf’atan.
Sendan-da ulug’roq narsa yo’qligin
sochim oqarganda angladim, Vatan!*

¹ Нуруллоҳ Муҳаммад Рауфхон. Шеърятга қўчган шахсият. //Шарқ юлдузи. 2011. №4. 172-bet.

Shoirning sochi oqarganda u atigi 34 yoshda edi. Bu hali navqiron yosh. Lekin shoir uni «sochi oqarish» sifati bilan belgilayapti. Chunki u Vatanni yanayam avvalroq anglash kerak edi, deb biladi.

*Buncha kech angladim,
nega buncha kech...
anglasam loaqlal o'ttiz yil avval,
loaqlal tug'ilmay turib anglasam...
Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal.*

Qarang, shoir Vatanni hali go'dakligidan anglab yetmaganidan afsusda. U o'ttiz to'rt yoshida anglaganlarini 4 yoshimda anglasam nima qilardi, deya yonmoqda. Bu Shavkat Rahmon ko'ksida Vatanga bo'lgan buyuk muhabbatdan dalolat emasmi? Ayni paytda shuni alohida qayd etish kerakki, shoirning she'r yozilmasidan oldin va she'r yozilgan paytdagi Vatan haqidagi tasavvurlari birbiridan farqlangan bo'lishi mumkinmi? «Naqadar kechikib angladim seni» deydi shoir yana quyiroqda. Nega kechikib? Axir u o'zining birinchi kitobining ilk she'rini «Vatan» deb nomlagandi. Qolaversa, uning ko'plab she'rlari ona diyorning u yoki bu shakldagi tarannumidan iborat bo'lib keldi.»¹

Shoir she'rlari she'rxonni o'zligidan g'ururlanishga, o'zga makonlardagi ushalmas orzudan ko'ra o'zida bor boylik – tirik vatanni asrashga, uning uchun kurashishga undaydi:

*Bu yerda men mangu yasharman
nurlarin sarflab ko'zimning.
Birovning yerimas bu yerlar,
O'zimning yerimdir, o'zimning.*²

Anglash mumkinki, Shavkat Rahmon bir yurt bolasi sifatida o'z eli, vatani uchun qayg'urmoq, uning dardi va quvonchini o'zidan ham avval o'ylamoq, unga asl baxtlarni ilinmoq borasida kuylaganlari, muhrlab ketganlari ibrat olishga arzigulikdir.

¹ Нуруллоҳ Мухаммад Рауфхон. Шеърятга кўчган шахсият. //Шарк юлдузи. 2011. №4. 173-бет.

² Шавкат Раҳмон. Абодият оралаб. –Тошкент: Моварауннахр, 2012. (Бундан кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан олинди ва саҳифаси қавс ичида кўрсатилади)

Shoir ijodining yana bir etakchi mavzusi **TABIAT**dir. Sh. Rahmon o'z she'rlarida tabiatning rangin lahzalarini aks ettiradi. Shoirning e'tiboridan tabiatdagi hech bir zarra –tog'-u toshlar, daraxtlar, gul-u chechaklar, qush-u hayvonlar, hatto, tabiatning bir qismi bo'lgan shamol-u yomg'irlar chetda emas. Shu bois ham shoirni biz haqiqiy ma'noda tabiat oshig'i va kuychisi, deb atay olamiz. Sh. Rahmonning tabiat mavzusini kuylash mahorati adabiyotshunos olim Musulmon Namoz tomonidan tahlil qilingan bo'lib, muallif maqolasidan o'rin olgan quyidagi mulohazalar e'tiborga molikdir:

“Bog'larda ko'zlarim qamashar

shoxlarga ilingan oylardan...

Toshlarga urilib, sharqirab,

yulduzlar oqadir soylarda.

Bosdim oq ilonni to'satdan –

bilanglab oralab sayhonni...

Daraxtzor yelpiydi bemador

saraton kuydirgan osmonni.

Shavkat Rahmonning tabiat poeziyasiga murojaat qilishida chuqur ramziylik bor. Bu qaysidir ma'noda, tasavvuf falsafasi bilan, nokomil jamiyat hayotidan yuz burish va faqat ruhiy takomil bilan shug'ullanish lozim, degan qarashlar bilan bir darajada uyg'un. Zero, hamma narsa faqat qiyosda oydinlashadi. YAshab qolish uchun ma'naviy asos topish lozim edi:

Qaytdim yorug' yulduzlarimga,

shu'lalarga to'ldi har onim.

Meni ko'rib qo'zg'alib ketdi

adirlarning sariq karvoni.

Ha, ma'naviy asos topmoq uchun “yorug' yulduzlarga” – ruhning o'z-o'zini shakllantirish asoslariga QAYTISH kerak edi. Faqat shundagina qalbning har oni shu'lalarga to'lishi – o'zini quvg'inga duchor qilgan olomondan yuqori ko'tarilib, mangu uyg'unlikka erishish mumkin bo'lardi. Ma'naviy asosiga qaytgan qalb o'zini shakllantirgan eng oliy barkamollik – mangu uyg'unlikni faqat tabiatda

uchratiishi mumkin. Shuning uchun ham QAYTIB KELGAN QALBni ko'rgach, TABIATning qo'zg'alib ketishi muqarrar.

*Tumanlarni qo'porar tog'lar,
giyohlar ham ko'zin yoshlaydi.
O'shning ko'hna quchoqlarida
ko'nghim yana o'sa boshlaydi.*

Ha, toza, sof, bokira qalb tabiatning farzandi edi. U jamiyat qo'yniga otilgach, tabiatda o'z farzandi taqdiriga, bu buzilib borayotgan dunyodagi so'nggi ilinjining qismatiga havotir tug'ilgan bo'lsa, ajab emas. Har holda, shoirning shunday o'ylashga, tasavvur qilishga haqqi bor. Va bu farzandning qaytganidan "uzoq kutgan yuraklar xotirjam yashay boshlashi"da ham nedir bir qonuniyat borligini sezish mumkin.

Odam, baribir ham, o'zini jamiyatdan butunlay chetga torta olmaydi. Shavkat Rahmonning she'rlariga qarab hukm qilish mumkinki, shaxs o'z ruhining kengliklariga qanchalik chekinmasin, qanchalik o'z-o'zi bilan mashg'ul bo'lmasin, yoki buyuk jamol – oliy mukammallik axtarib tabiatning qoshiga sajda qilib bormasin, baribir alaloxir shaxs o'zi kim, uning jamiyatdagi o'rni qanday degan savollar ko'ndalang bo'laveradi..."¹

Shoir insonga tabiatning bir bo'lagi sifatida qaraydi, shuning uchun ham tabiat va uning borlig'ida kechayotgan hodisotlar inson «men»iga bevosita ta'sirda ko'rinadi. Qolaversa, tabiatning mo'jizasini, Tangri taolo ato etgan buyuk qudratini so'z vositasida she'riy asarlarida o'ziga xos tarzda ifoda etganligi shoirning tabiat poeziyasining yuksakligini yaqqol namoyon qiladi. "Shavkat Rahmon bir she'rida:

*Hayr, Bahor! Alvado, Bahor!
Rahmat oshiq gullaring uchun,
shoxlarimga zumrad g'o'ralar,
qadab qo'ygan qo'llaring uchun.
Hayr, Bahor! Alvado Bahor!
Ushalmasdan qoldi armonim.*

¹ Мусулмон Намоз. Туманларни қўпорар тоғлар. [http:// kh-davron.uz](http://kh-davron.uz) сайти

*Biroq kutgil, dedi-yu bahor
lablarimga bosdi barmog'in.*

- deydi. Chinakam shoirdan yana bundan ortiq nima kutish mumkin? O'ta og'ir sharoitda ijod qilgan shoirning «Bahor»ga aytilgan vidosi – millat ozodligi uchun qaratilgan qalb nidolari emasmi? Shoir tabiatning eng ulug' ne'mati – yashillik va go'zallik haqidagi yuksak ideallarining faylasufona tashbehlari emasmi? She'ning intihosiga teran nigoh solsangiz, qaysidir faylasuf adibning iborasi ega tushadi, «Tiriksan hali o'lmagansan, umid bilan yashash kerak», degan. Shoirning lirik qahramoniga ham «Bahor» umid va taskin beradi.”¹ Sh. Rahmonning tabiat va uning xos elementlariga alohida e'tiborli ekanligi va ulardan ham katta falsafa izlashini o'zi tartib bergan “Saylanma” (1997 yil)ning tuzilishidan ham anglash mumkin. Shoir tabiatning to'rt faslini umrining bo'laklariga qiyoslab, to'rt faslga xos nomlangan bo'limlarga aynan bahor, yoz, kuz, qish mavzusidagi she'rlarini saralab, joylashtiradi. (Shu o'rinda A. Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni va uning to'rt faslga bo'linganligi haqidagi an'anani eslang!)

Birinchi fasl “Hamal” she'ri bilan ochiladi:

*Erib bitdi poyonsiz qorlar,
yana ko'hna zamin tulladi.
Vodiydagi ulkan o'riklar
bir kechada oppoq gulladi.*

Bahor... Darhaqiqat, unib-ko'karish fasli. Shavkat Rahmonning birinchi fasli ham mohiyatan shunday fasl va unda “Kunlar pisha boshlaydi yana, ranglarini boshingda yelar” yoki “Yechib oppoq ko'ylagini vaqt, kiydi yashil gulli ko'ylagin” va yohud “Ishon, odam, bahorga ishon, qara, go'dak kabi beg'ubor” deb boshlanuvchi she'rlar talay bo'lib, bular ham inson umrining gullab-yashnayotgan pallasi kayfiyatining mevasidir.

Ikkinchi fasl “Yoz ravishi” deb nomlanadi. E'tibor bering, birinchi fasl bahorga atalgan she'r bilan ochilgandi, ikkinchisi esa yozdan boshlanmoqda.

¹ Отажон Норов. Уйғоқ виждон куйчиси. [http:// kh-davron. uz](http://kh-davron.uz) сайти.

...Qizib ketar yer tomirlari...

Tunga iliq bo'ylar taralar.

Birdan qaynoq yoz oqib kelar

Jimib qolgan bog'lar oralab.

Bu fasldan joy olgan she'rlarni ismlariga nazar tashlashning o'ziyoq gap inson umrining qaysi bosqichi – qaysi fasl haqida ketayotganidan darak berib turadi: “Tong ko'ksida”, “Suronlarni...”, “Yoz tuni...”, “Tun gurkirab...”, “Bog'larda...”, “Ichar quyosh...”, “Yashil sochli...” va hokazo.

Uchinchi faslning debochasi “Odamdaraxt” deb nomlanuvchi she'rdir:

O'sayotgan

kuchli daraxtman,

shoxlarida pishar so'zlarim,

O'ychan kuzak kelguvchi yo'lga

ikki tog'day boqar ko'zlarim.

Mana, biz kutgan va umuman, masala mohiyatidan tabiiy ravishda kelib chiqquvchi natija: shoxlarida so'zlari pishayotgan shoir misoli kuchli daraxtdek kuzakni kutib turibdi. Demakki, u umrining navbatdagi bosqichiga – uchinchi faslga – o'ychan kuzakka qadam qo'yyapti.

To'rtinchi fasl – qish. Inson umrining so'ng pallasi. Demak, qaysidir ma'noda sarhisob vaqti, qaysidir ma'noda pushaymonlik, afsus-nadomat zamoni.

Kuylolmadim

yaproqlar kabi,

quruq shoxday titrar ovozim –

so'lib qoldi bahorim tag'in,

suvga cho'kdi yana bir yozim.

Shoir “bahorim so'ldi”, “yozim esa suvga cho'kdi” deyish bilan avvalgi fasllar – umrning “G'aroyib us-sig'ar”, “Navodir ush-shabob” va “Badoye' ul-vasat” pallalari kechib, endi oxirgi bosqich – “Favoyid ul-kibar” tashrif buyurayotganidan alam bilan xabar bermayaptimi?

*Qorlar yog'di,
og'ridi jonim,
uxlayotgan bog'lar poyida.
Kuylolmasdim, undan yomoni
yashil edim qantar oyida...*

Biroq yana shu narsani e'tibordan qochirmasligimiz zarurki, Shavkat Rahmon garchi to'rtinchi fasl – inson umrining oxirgi pallasi haqida gapirayotgan bo'lsa-da, o'zi yosh edi. Ko'rinadiki, shoir shunday bir hassos, ayni chog'da sirli qalb egasiki, u gohi yosh bo'la turib keksa holiga tushadi, keksa bo'lib dunyoga nazar tashlaydi va hokazo. Bu esa tabiatni insondan, insonni esa tabiatdan ajratib bo'lmasligining shoirona dalilidir.”¹

Shavkat Rahmon ijodida **ishq** mavzusi ham yetakchilik qiladi. Shoir bu serg'alva, foniy dunyoda ISHQni yagona tayanch deb biladi. Undan boshqa narsalarning hammasi bekor:

Faqat ishq...

Faqat ishq...

Boshqasi sarob,

boshqasi shamolning oniy suroni...

Ishq orqali anglangan dunyoni komilliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Dunyoning o'zi ham mukammal uyg'unlikdan tashkil topgan. Inson ham uning bir bo'lagi sifatida kamolotga yetishmog'i lozim. Axir odamzodning o'z-o'zini anglashga bo'lgan qiziqishi, intilishi hech qachon tinch qo'ymagan. O'zni anglash esa bir umr davom etadigan uzluksiz jarayon. Shuning uchun ham shoir ishq tushunchasiga o'xshatishlar izlashdan erinmaydi, uning qiyosini tabiatdan axtaradi. Muhabbat esa ba'zida “nafis chechak”ka, ba'zan “bir go'zal qushcha” yoki “chiroyli kapalak”ka do'nadi. Biroq shoirning ishqning aslida nima ekanligiga emas, unga yetishmoqdan ko'ra, “nafasing chiqarmay bir umr” kuzatib turmoq, unga jim termulmoq kerakligiga iqrar bo'ladi. Aytish joizki, muhabbat mavzusi Shavkat Rahmon ruhiyatini ochib beruvchi muhim mavzudir.

¹ Улугбек Хамдам. Шоир – “тузалмас” ҳақиқатпараст. [http:// kh-davron.uz](http://kh-davron.uz) сайти.

Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon she'riyatining mavzu va muammo ko'lamini juda keng. Eng e'tiborlisi, shoir qaysi mavzuda so'z aytmasin, shunchaki aytmaydi, tuyg'ularini yondirib, ana shu tizginsiz olov taftida o'zi ham yonib yozgan.

Ikkinchi fasl.

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Mazkur ishning dastlabki qismlarida aytib o'tilganidek, Shavkat Rahmon she'riyati degan nom paydo bo'ldiki, uning alohida xususiyatlari e'tirof etilib, adabiyotshunoslik vakillari, qolaversa, adabiyot ixlosmandlari tomonidan tahlil qilinib kelinmoqda. Bu orqali shoir she'rlariga xos xususiyatlari yanada oydinlashib, shoirning turkiy tilning boy leksikasi, badiiy tasvir vositalaridan, badiiy detal' va obrazlardan foydalanish mahorati, tasvir yaratish uslubi, shakliy izlanishlarida o'z ifodasini topmoqda.

Shavkat Rahmon ijodini o'rganish va tadqiq qilishda faol izlanishlar olib borayotgan olimlar – Ilhom G'aniev, Nodira Afoqova hamda Afifa G'anievalar hammuallifligida chop etilgan “Shavkat Rahmon olami” nomli kitobning “Uslubning ayrim qirralari” bobida aynan mana masalada so'z yuritiladi. Mualliflar o'z xulosalarida shoir she'rlarida “...Fitrat va Cho'lpon she'rlaridagi otashin millatparvarlik ruhi, Abdulla Oripov lirikasidagi izchillik, kontsentriklik, tadrijiylik va Rauf Parfi uslubiga xos quyuq istioraviylik, tig'iz obrazlilik, taranglikning har to'rtala shoir ijodidagi g'oyaviy-estetik mazmun bilan benihoya nozik sintezlashganini”¹, shuningdek, bularning barchasi Shavkat Rahmonga xos sintaktik sathda yuzaga chiqishi, badiiy sintezning taqlidning tuban darajasida qolib ketmagan bu ko'rinishi so'z san'atining spetsifik xususiyati bo'lib, muayyan ijodkor uslubining originalligiga zarracha bo'lsin soya solmasligini ta'kidlab o'tishadi. E'tiborli xulosalardan yana biri, olimlar shoir ijodini tadqiq qilish davomida uni “qalb va ruh rassomi” deb ataydilar va “Shavkat Rahmon she'rlarida ham shoirning qaysar va o'jar fe'li, qalbi ko'zgudek ko'rinib turadi. Uning she'rlari shu qadar tabiiyki, o'qisangiz, ko'z oldingizda huddi kino lentasidek yaxlit bir manzara – go'zallik, ruhiy sokinlik jonlanadi”², deya izoh beradilar. Bu esa har qaysi shoirga ham xos bo'lmagan ijodiy xislatdir.

Shoirning bor-yo'g'i 23 yoshida yozgan she'riga e'tibor qiling:

¹ И. Ганиев, Н. Афокова, А. Ганиева. Шавкат Раҳмон олами. –Тошкент: Академнашр, 2013. 123-бет.

² Shu manba. 6-бет.

*Sahar turdim, quyoshni kutdim,
shudringlarda chaydim yuzimni.
Buloqlarga labimni tutdim
va borliqda ko'rdim o'zimni...
Ko'zlarimdan toshdi shuurim,
to'lib ketdi bag'rimga navo.
Mangulikday tuyuldi umrim,
mangulikday tuyuldi dunyo. (1973)*

Sahar turib, tabiatning go'zal parchasi bilan yuzma-yuz kelgan yosh shoir o'zini – insonni borliqning uzviy qismi o'laroq his etadi. Shunda umr ham, dunyo ham mangulikday tuyuladi. Endi quyidagilarga e'tibor bering, balki ushbu mulohazalar kimdadir erish kayfiyat uyg'otar, qat'i nazar, aytish joizki, o'zni borliqda, uning ajralmas bir parchasi o'laroq his qilish darajasiga ko'tarilish uchun inson juda uzoq va o'ta mashaqqatli yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Aytaylik, tasavvufda muayyan bosqichlardan o'tgan solikkina o'z intilishlarining natijasi o'laroq ana shu hisni topishi mumkin. Biz esa yuqorida 23 yoshli, buning ustiga hech qanday tasavvufiy tayyorgarligi bo'lmagan shoirda o'zni olamning parchasi o'laroq tuyish ne'mati bor, dedik. Gap shundaki, dunyoni anglash va idrok etishning ikki xili bo'lib, biri aqliy – ratsional, ikkinchisi hissiy – irratsional. Dunyoni ratsional anglash insondan, avvalo, fursat va mehnat talab qiladi, irratsional qabul qilish esa asosan kishining qobiliyati, ruhiy holati, hissiyot boyligi bilan bog'liq ravishda ro'yobga chiqadi. Chinakam shoirlar o'z tabiatlariga ko'ra dunyoni hissiy qabul qiladigan insonlardir. Binobarin, ular yoshlaridan qat'iy nazar o'z asarlarida olam va odamga taalluqli jahonshumul kashfiyotlar yaratishga qodir zotlar hisoblanadi. Shu ma'noda yosh Shavkat Rahmonning yuqoridagi she'ri ham olamni hissiy idrok etishning go'zal namunasi, o'ziga xos mo'jaz kashfiyotdir.

Shavkat Rahmon zo'raki o'xshatish va qofiyabozlikdan butunlay holi, sodda va suyumli she'rlar yarata olgan. U hayolida jo'shib kelayotgan tasvirlarga erkinlik berishga intiladi va buning asnosida qofiya ham, mazmun ham bir-birini rad etmay, bitta butunlik hosil qiladilar:

*Gulga aylan, yomg'irga aylan,
sayhonlarga quyil ziyoday.
Qayta tug'il, yorug' yuz bilan
vodiylarni kezzin piyoda... (-B.37).*

Shoir she'rlarida latiflikdan ko'ra, kuchli shijoat, qat'iyat sezilib turadi va u o'zining bunday keskin qiyofasini she'rxonga ham yuqtiradi:.

*Yurtimni kezaman,
endi har narsa –
egilgan narsalar tegar g'ashimga.*

Dildagi iqrori, g'azabini bunday yo'sinda kuylash Sh. Rahmonga xos alohida xususiyatdir.

*“Zulfiqor ruh kerak,
kerak chin yog'du,
chin ishq yolqinlari bag'rimga to'lsin,
jismimni toblasin faqat chin og'riq.
Chechaklar qop-qora bo'lsa-da, bo'lsin...*

Chin so'z, chin tuyg'u, chin amallarga doimiy intiklik chin shoirlik belgilaridandir. Yuqoridagi misralar Shavkat Rahmonni boshqa minglab dardchil shoirlarga yaqin kiladi. Shu bilan birga, ayni shu misralar Shavkat Rahmon degan badiiy fenomenning boshqalardan farq qiladigan jihatlarini ham namoyon etadi: shoir «zulfiqor ruh» istaydi. Unga shunchaki qoniqmaslik, shunchaki norozilik, ruhning shunchaki injiqligi xos emas. Shu bois hech kim aytolmaydigan yo'sinda: **“Bormi er qizlar?”** - deya savol qo'yadi. Odam er bo'lgandagina yer bo'lmasligi shoirning barcha asarlari zamiriga singdirilgan baland tuyg'ulardan biridir.

Shavkat Rahmon she'riyati tashki effektlarga unchalar boy emas. E'tibor qilinsa, shoir she'rlarida o'zbek nazmi uchun odatiy bo'lgan to'q qofiya juda kam uchraydi. Bu shunchaki tasodif emas. Shoir musiqiy mutanosiblikdan, kishi tuyg'ularini allalab chalg'itadigan nazmiy ohanglardan chekinadi. Kishi yuragiga bexato yetib boradigan, keskir qilichday tekkan joyida iz qoldiradigan zalvorli va qirrador tuyg'ularni o'shanga monand yo'sinda ifoda etadi. She'r to'q qofiyasiz

bo'lsa, kishini allalovchi musiqiylik unchalar kuchli bo'lmaydi. She'riy so'z zalvori misralardagi umumiy ohang og'ushida yo'qolib ketmaydi va o'quvchi uni alohida idrok etish imkoniga ega bo'ladi. Sh. Rahmon bitganlarida tovushlarni o'ynatib, hissiyotining nozik qirralarini titkilab so'zdan olov chiqarishga emas, balki o'z-o'zidan gurkirab, olovlanib turgan ruhning haroratini, porillab yonayotgan tuyg'ularning alangasini ifodalashga yaraydigan so'zlarni qidiradi. Shoir hayoti mobaynida yonib yashadi va bundan malollanmadi, aksincha: **«Yonmoqlik munchalar yoqimli!»** - deya huzurlandi.

Chinakam shoir hamisha yo'l kishisi. Faqat bu yo'l jug'rofiy emas, balki ruhiy manzillardan o'tadi. U gunohlarga botgan zamindan orzudagi yurt - ezgulik tantana qilgan afsonaviy maskan sari o'tlanadi. Bu yo'lning mashaqqati ko'p, ozori cheksiz, farog'at esa faqat mo'ljalda. Lekin uyg'oq qalb jozibador maskan - ezgulik sari chorlayveradi. Shoir bu yo'lga yurmoqchi bo'lgan kishi qaltis lahzalarda pand berishi mumkin bo'lgan eng buyuk dushmani – xiyonatni o'ldirishi lozim deb biladi. Chunki xoinlik, xiyonat, qo'rqqoqlik kabi illatlar bilan kurash yo'lga kirib bo'lmaydi:

*Yo'ldir bu,
nafsning botqog'i emas,
qilichning damiday chaqnagan yo'ldir.
Bu yo'lga yuzingni burishdan avval,
o'ldir, ichingdagi xoinni o'ldir.*

Shavkat Rahmon: ruhi keskir shoir, shu sabab so'zi, obrazlari, tashbehlari keskir va qontalash. Uning so'rashishga uzatilgan qo'li ham o'rni kelsa, **«...tig'day yaltirab ketish»**ga qodir. U: **«...tilim qonar keskir so'zlardan»**, - deb aytishga mahkum ijodkorlardan. Uning tig'li so'zlaridan nafaqat tili, balki dili, ruhiy olami tilka-pora bo'lardi. So'zki shuncha og'riqli ekan, bu so'zlarni yuzaga keltirgan tuyg'ular qanchalar azobli bo'lsa! Bularni tuymoq va cho'chimay, hech kimni ayamay aytmoq uchun qanchalar jasorat kerak bo'lsa! Shoirning: **«...bilmoqchi bo'lsangiz agar shoirlik jasorat so'zining tarjimasidir»**, - degan so'zlarida zarra qadar chiranish, zo'riqish yo'q. Shoir dunyoni tozalamoqchi, uni

takomillashtirmoqchi bo'ladi. Asli har qanday chin shoir shu niyatda qalam suradi. Ana shunday ulkan va vujudga sig'mas tuyg'uga egalikkina odamni ilohiy so'zga oshno etadi:

Qalbi bezovta, ruhi uyg'oq shoir dunyoni o'ziniki biladi. U – dunyoga ham xo'ja, ham xizmatkor. Shu tufayli shoirning yuqoridagiday da'vatlari erish tuyulmaydi. Chunki ochun – uning o'z mulki. U – dunyoning chin egasi. Egasi bo'lgani uchun ham uning tozaligi haqida boshqalardan ko'ra ko'proq kayg'urishga haqli.”¹

Shoirning har bir so'zga e'tibor va sinchkovlik bilan yondoshganini istagan she'rini mutolaa qilish orqali ham anglashingiz mumkin. Qolaversa, “u shunday so'zga, she'rga mas'uliyat bilan qarardiki, hatto «tili va dili» boshqa kimsalarni o'sha zahoti – tanqid ham qilardi. Har bir ishga, ijodga xolislik nazaridan baho berardi va qarardi. Uning she'riyati ham shaxsiyatiga o'xshab o'ta jasoratli, haroratli edi. So'zni sevardi. Chin so'zlarning quli edi. Bir umr – haqiqat uchun kurashib yashadi. *«Men jangchi emasdim, men shoir edim. Dilimni og'ritdi besamar janglar»*, deydi u. Ya'ni u yashagan davr Shavkat Rahmon uchun jang maydoni, kurash maydoni bo'lgan she'riyat edi. She'riyatida kurashish bilan cheklanmadi, mardona, dadil qadamlar bilan xalqning orasiga kirib ham bordi. Bu kamdan-kam shoirlarda uchraydigan xislatdir.

Adabiyotdagi shaxs masalasi haqida gap ketganida avvalo, shuni aytish joizki, ulkan jasorat egalari, chin iste'dodlilargina katta adabiyot yarata oladi. O'shalarining yozganlari adabiyot bo'lib qoladi. Barcha zamonlarda ham shunday bo'lib kelgan. Bular ertaga ham, indinga ham davom etadigan hodisadir. Demak, Shavkat Rahmon shaxs va ijodkor sifatida ham «dili, tili» bir bo'lgan insondir. Achchiq gapirgan. Chaqib gapirgan. U o'zbek she'riyatining istiqbolini, nainki chin adabiyotni, balki millat erki va ozodligi, kelajagi, farovon turmushi xususida jiddiy bosh qotirgan, xalqni shunga da'vat etib yashagan, chaqirib yashagan. Chin

¹ Йўлдошев Қозоқбой. Ёниқ сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 238-бет.

iste'dodlining hayot shiori ham shunday bo'lishi shart! Bo'lmasa ikki tomonga ham jabr qilgan bo'ladi. Birinchisi – adabiyotga, ikkinchisi – o'ziga!”¹

Shavkat Rahmonni hech ikkilanmay jasoratli shoir, deb atashga haqlimiz. Jasorat esa kamdan-kam ijodkorlarga nasib etadigan ruhiy borliqdir. U o'zidan, o'zligidan kechib, «ba'zi bir ijodkorlarga o'xshab» so'zni, she'riyatni, adabiyotni quruq yolg'on va o'tkinchi havas bilan bulg'amaydi. Buni gunoh deb biladi. Shularga o'z vaqtida amal qilib o'rgangan va boshqalarni ham shunga da'vat etib yashagan inson – shoir qanday baxtli? Unga na bir unvonu na bir zebu zar kerak? Bir chimdim mehr kifoya. Chinakam adabiyot – chin so'zlarning bag'rida yaratiladi. Boshqacha bo'lishi aslo mumkin emas. Shavkat Rahmon ana shunday har qanday savolingizga javob bo'lgulik tuyg'ulari, sezimlari yirik shoir edi.

Shavkat Rahmon XX asr o'zbek she'riyatining xassos shoirlaridan biri bo'lishi barobarida ulkan tarjimon ham ekanligi e'tiborga molikdir. U ispan she'riyati vakillaridan Xuan Ramon Ximenes, Rafael Alberti, Federiko Garsia Lorka kabi shoirlar ijodidan namunalarni o'zbekchaga mohirona o'giran. Ayniqsa, shoirning Garsia Lorka she'riyatidan tarjimalari ham salmoq jihatidan, ham san'atkorlik mahorati nuqtai nazaridan yuqori baholangani uning ijod oldidagi san'at darajasiga ko'tarilgan mehnatining mevasidir. Shavkat Rahmonning ispanchadan o'giriklari ilmiy bahosini berish hozircha kelajakning ishi bo'lib turibdi. Lekin shuni tan olish zarurki, Garsia Lorka boshqa millat va boshqa dunyoning shoiri, demakki, o'zbek kitobxoni uchun boshqacha shoir bo'lishiga qaramay, Shavkat Rahmon tarjimalarida u bizga yaqin keladi, judayam tanish tuyuladi:

Aytilmagan

bir qo'shiq

lablarimda uxlaydi hali.

Aytilmagan

bir qo'shiq.

¹ Отажон Норов. Уйғоқ виждон куйчиси. kh-davron.uz сайти

Shavkat Rahmon she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarining to'la namoyon bo'lishida Lorka she'riyatining alohida o'rni borligini alohida ta'kidlash kerak.

Ma'lumki, adabiyotning qismati ijodkorning qalami qudratiga, salohiyatiga, ong-u shuur darajasiga, qalbi kengligi va albatta, vijdoniga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, "shoirlik – qismat" ekanligini erta anglab ulgurgan Shavkat Rahmon uchun she'r umrining, tiriklikning ma'no-mazmuniga aylangan edi. 80-yillardan she'riyat ahliga tanish bu shoirning she'rlari boshdanoq shaxsiy dardlar ifodasidan ancha baland edi. Uning dard-u armonlari, iztiroblari xalqning dardi, millatning dardi bilan, jamiyatning muammolari bilan chambarchas bog'lanib ketgandi. Shuning uchun shoirning lirik-falsafiy, kuchli ijtimoiy ruhdagi she'rlaridagi o'ziga xos jihatlar va ularning salmog'i mutolaa jarayonida aniqlashib boraveradi.

Mazkur bobning xulosasi sifatida aytish mumkinki, Shavkat Rahmon she'riyati shunchaki shakllanib qolmagan, aksincha, ilohiy iste'dod, kuchli tafakkur va katta mehnat orqali yuzaga chiqqan, adabiyot maydonida tanilgan.

Shoir ijodining mavzu va muammo doirasi kengligi hamda har bir mavzuga sinchkovlik bilan yondashish borasida ham o'ziga xos ekanligi ta'kidlab o'tildi. Vatan, istiqlool, tabiat, muhabbat kabi o'nlab mavzularda yozilgan ijod namunalari shoirning chinakam kashfiyotlaridir.

Sh. Rahmon she'rlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish davomida shoirning fe'li va sajiyasi she'rlarida aks etganini, shoir aslo aldab yozolmasligi, ya'ni soxta satrlardan qochishini, ayniqsa, she'riyatining alohida obrazlar ketma-ketligiga ega ekanligini, tog', tosh, daraxt singari detallarni esa allaqachon o'ziniki qilib olganini anglash mumkin. Qolaversa, Shavkat Rahmon turkiy xalqlarga xos latif, biroq o'z o'rnida shiddatli yozishi, turkiy til imkoniyatlaridan unumli foydalanishi haqida ham mazkur bob ma'lumot beradi.

Umuman olganda, birinchi bob o'z mazmuniga ko'ra, ikkinchi – muhim bobning yoritilishi uchun zina vazifasini o'taydi. Chunki Shavkat Rahmon she'riyati haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmay turib, uning badiiy kompozitsiyasi, xususan, unda qo'llangan badiiy detallar haqida ham mulohaza yuritib bo'lmaydi. Shu bois keyingi bobda dastlabki bobdan olingan xulosalarga ham tayaniladi.

IKKINCHI BOB.

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA BADIY DETAL.

Badiiy detal qo'llash o'zbek adabiyotida o'ziga xos maqsadni kengroq va ishonarli tasvirlashga xizmat qilibgina qolmay, ijodkorning, u xoh nasrda, xoh nazmda qalam tebratsin, alohida mahoratini ko'rsatadi. Nasrda Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriyning detal qo'llash borasida mahoratli deb baholansa, she'riyatda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, shuningdek, Shavkat Rahmonga ham ana shunday munosib baho berilgan.

Aytish mumkinki, Shavkat Rahmon she'riyatida nom qoldirgan obrazlarning yuzaga kelishida muallifning o'ta mohirlik bilan tanlagan detallari katta ko'mak beradi. Shoirning adabiyotshunos olimlar tomonidan e'tirof etilgan xususiyati ham shundaki, u o'zi kashf etgan badiiy detallarni o'zining she'rdagi eng yaqin yordamchisi, she'rni harakatlantiruvchi motori, deb biladi. Bu, ayniqsa, shoirning istiqloq mavzusini yoritish uchun qo'llagan o'nlab detallarida ko'zga tashlanadi. Bu haqida bobning 2-faslida to'liq ma'lumotga ega bo'lasiz.

Eng avvalo, Shavkat Rahmon she'riyati deganda ko'z oldingizga keladigan, tom ma'noda, shoir dunyoga keltirgan badiiy detallarning bir nechitasi, ya'ni tog', daraxt, avtobus va qarsak detallariga to'xtalish orqali mulohazalarimizni davom ettiramiz.

Shoirning "Qarsak" nomli she'rida millat va milliy tuyg'ularning oyoqosti qilinishi, erksizlik, soxta farovonlik kabi jamiyatning og'riqli nuqtalari **qarsak** detali orqali yuzaga chiqariladi.

Qarsak nima o'zi?

Ikkita kaftning

orasidan potrab chiqadigan sas

Xohlasam chalaman, xohlamasam yo'q,

qarsak menikidir, sizniki emas.

"Sobiq Ittifoq davrida (bu ko'p ming yillik davlatlar tarixida ham ko'p bo'lgan) xunuk ishlar: rahbarga yaltoqlik, uni ko'klarga ko'tarib "yashirin ochko ishlash", shu yo'l bilan ish bajarish kasali ham urchigan, "modaga" aylangan

bo'lib, baholash mezonini go'yo "guldiroz", "davomli" qarsaklar edi. Ayrim manbalarda qayd qilinishicha, Leonid Brejnev sobiq Ittifoqning ayrim Respublikalariga borganida uning nutqiga qarsak urish maxsus mashq qildirilgan ekan.

Shavkat Rahmon aynan ana shu qarsakbozlik, soxta farovonlik, erksizlik, millat va milliy tuyg'ular, adolat oyoqosti bo'lgan bir og'ir davrda ijod qildi. U millatning kuchli shaxs, xarakterli, irodasi bukilmas shoir sifatida haqiqatdan ham har qanday joyda qarsak chalavermadi. O'z she'rlari bilan soxta qarsakchilarni fosh etdi, ulardan jirkandi. Sabab: "viydonsiz shoirlar ko'paygan juda, yurakni so'z bilan yondirguvchi kam". Maddoh, xoin, qo'rqqoq, munofiq, naxs bosganlar haddan ziyod ko'p. Bunday yurt millatda birlik, erk, ozodlik, baxtdan gapirish, chin yurakdan qarsak chalish mumkinmi? Yo'q!!!

Shoir g'oyatda nozik bir tazodiy manzara yaratadi. Ya'ni she'rning dastlabki misralaridayoq qarsakni "ikkita kaft orasidan potrab chiqadigan sas", ya'ni shunchaki bir narsagina ekanini aytib qo'yadi, keyinroqda "arzimagan gap" deya fikrini yana mustahkamlaydi-yu, keyin ana shu arzimagan sasning ham ijtimoiy hayotda arziqli ahamiyati borligidan so'z yuritadi. Aks holda, qarsakni qizg'anishning, "axir, o'zbekning o'jar shoiri qarsak chalarmidi", "xalqimas, shuhratni o'ylab so'ylagan ahmoqqa bermayman qarsagimni ham" deb yozishga hojati bo'lmasdi. Shu tariqa qarsak muhim badiiy detalga, muhim ijtimoiy hodisaning ramziga aylanadi. Mana shu she'rda Shavkat Rahmon ijodiy dasturining yana bir qirrasini oydinlashtiriladi, shoir ijodida o'ziga nisbatan tez-tez ishlatilgan "o'jar shoir" tavsifnomasi aniqlik kasb etadi:

*G'irromlik qilmasa notiq agarda,
yolg'on she'r aytishdan qaytsaydi shoir,
Miltiq o'qlariday gumburgum qilib
havodan qarsaklar yasardim doim.
O'jar shoirlikni tashlab o'shal payt
epchil bir yugurdak kabi zamonda.
Qarsak chaladigan xizmatchi bo'lib*

Ishga kirar edim O'zbekistonda.

Demak, Shavkat Rahmonning shoirligidan muddaosi – shon-shuhrat yohud ko'ngil mayli emas. Jamiyatning og'riqli nuqtalari, inson fe'lidagi yaramas shaytoniy qusurlar uni qo'lga qalam olishga, shu illatlariga qarshi o'jarlarcha kurashishga undaydi. Agar mana shu illat-u qusurlar bo'lmasa, uning shoirligiga ham hojat qolmaydi. “Qarsak” komil shaxs, mukammal jamiyat sog'inchidan tug'ilgan she'rdir.

Shavkat Rahmon she'riyatida **tog'** mag'rurlik, alpik, engilmaslik, sabr-qanoat, yuksaklik, o'z o'rnida kamtarlik ma'nolarida betakror qo'llaniladi. Shoir uchun tog' – inson madad olishi mumkin bo'lgan kuchlarning eng munosibi. Shuning uchun ham shoir ne bo'lsa ham “*Tog'larga chop...*” – deydi. U o'z vujudini qayerda ekanligini bilmaydi, biroq yuragi yashashi mumkin bo'lgan joyni juda yaxshi biladi: “*Yuragim tunaydi tog'larda*”. Tog'ga katta ixlos bilan qaragan shoirning bu iqrori barchani hayratlantiradi. Ayniqsa, Sh. Rahmonning quyidagi she'rida **tog'** detali birinchi darajali va eng katta mazmunni ifodalashga xizmat qilgan.

*Ne davrlar qori tagida
muzlaganday qari qo'toslar,
sokin yotar Oloy tog'lari,
bag'ri to'la g'alayon, saslar.*

Uzoq zamonlardan buyon bag'riga g'alayonlarini g'amlab kelgan tog'lar bir necha ming yil avvallardan yashab kelayotgan **o'zbek xalqining** timsolidir. Bu xalq ne-ne kunlarni ko'rmadi, goh talandi, goh o'z ichidan yemirildi. Shunday damlarda ham u jim turdi, ammo sergak edi:

*Ammo sezar har bir sharpani,
bo'lsa hamki xoblari hadsiz,
o'z tinchini buzgan yovlarni
o'ldiradi tog'lar shavqatsiz.*

Bunda yurt tinchini buzgan yovlarga qarshi shavqatsizlik bilan kurashgan azmi qat'iy Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi kabi millat qahramonlariga ishora qilinmoqda.

O'zbek xalqi ko'p narsa chidashi mumkin, u sabrli, yuvosh va mo'min. Biroq o'z o'rnida o'ta mag'rur ham:

Ishonmasang, o'q otib ko'rgin:

bo'kirvorar sanoqsiz tqoya.

O'ta mag'rur, fe'li ko'p yomon,

tog'lar o'zin sevar bag'oyat.

Agar uning g'ashiga tegsang, tuprog'iga daxl qilsang, ayab o'tirmaydi.

Shoir she'ring xulosa qismida mustabid tuzumni, umuman, qora kuchlarni bugun nazariga ilmay, toptagan xalqning aslida ko'p narsalarga qodirligi, bir qo'zg'alsa, juda yomon qo'zg'alishi mumkinligidan qattiq ogohlantiradi:

Ehtiyot bo'l bunda yurganda,

buyukman deb xos hayol surma.

Miltiq otish u yoqda tursin,

ovozingni ko'tara ko'rma...

Chindan ham shunday. O'z davrida tuturiqsiz va'j va buyruqlarga chidab kelgan xalq erksizlikka, ayniqsa, o'zligining, milliy ma'naviyatining toptalishiga, unga o'q otilishiga qarshi kurashga otlangan. Bugungi dorulomon kunlarning badalini o'zbek xalqi o'z joni bilan to'ladi. Ana shu haqiqatni chuqur anglagan Shavkat Rahmon bu haqida yonib-yonib yozdi.

Shoirning tog' detali markaziy o'rinda turgan o'nlab she'rlari haqida firklashishimiz mumkin. Biroq, Sh. Rahmonning o'zi bir buyuk tog', degan xulosani berish hamda she'rlarida tog', qoya, cho'qqilar yashayotgan shoirga ana shu tog'larning sifatlari, shaksiz, ko'chgan deb aytish bilan chegaralanamiz va u mahorat bilan qo'llagan boshqa detallarga yuzlanamiz.

Milliy adabiyotimizda **daraxt**, eng avvalo, insonga qiyoslanadi va daraxtga xos jarayonlar, hislatlar bilan inson xarakteri va uning taqdiri uyg'unligi ko'rsatib

beriladi. Shavkat Rahmon daraxtga nafaqat inson, balki, xalq timsolini ochib beruvchi detal sifatida yondashadi:

*O'sayotgan
kuchli daraxtman,
shoxlarimda pishar so'zlarim.
O'ychan kuzak kelguvchi yo'lga
ikki tog'day boqar ko'zlarim. (-B.147.)*

Bunda shoir ertangi kunga umid bilan qarab turgan inson qiyofasini chizishga urinadi. Shoxlarida, ya'ni dili va tilida so'zlari etilgan inson esa shoirdir. Yo'lga tikilgan ikki ko'zini ikki tog'ga o'xshatish ham shavkatona tashbehdir.

Anglashiladiki, daraxt yozda bahordagidan ko'ra durkun ko'rinadi, huddi inson balog'atda yashnagan kabi. Biroq inson keksalikka, daraxt esa kuzga bir kunmas bir kun yetib borishini biladi va buni aslo rad etmaydi. O'z kuzini mardonavor kutib olish ham buyuk fazilat. Shoir inson va daraxtlarga xos xususiyatni uyg'unlashtira olgani uchun ham uni o'sayotgan kuchli daraxt ekanligiga ishonamiz. Bundan tashqari, daraxtlar shoir uchun katta ibrat manbai, ular umid, yashash ishtiyoqi, yangilanish, iroda timsoli:

*Har bahorda menga erinmay
Yashamoqni o'rgatar daraxt. (-B.122).*

Lirik qahramonning nazdida, insonlar hech bo'lmaganda, oyoq-qo'lsiz bir tana – daraxtdan ibrat olib yashaganlarida dunyoda, men baxtsizman, deguvchi odamlar kamaygan bo'lardi.

Shavkat Rahmonga xos fikrni ramz va obrazlarga yashirish, ayniqsa, fikrning asosini detal orqali aytish xususiyati uning “Baland daraxtlar” nomli she'rida ham o'z ifodasini topadi:

*Baland daraxtlar bor,
baland daraxtlar –
yerning yuragidan kuch-quvvat so'rgan.
Baquvvat chatishgan shox-shabbalarda
Daburu Po'yiroz yo'lini to'sgan.*

*Baland daraxtlar bor,
qulaganda ham
Hech kimga aytmalar qiynoqlarini,
Hech kimsa eshitmas,
eshita olmas
baland daraxtlarning ingroqlarini. (-B. 208).*

Shoirning ona yer yuragidan quvvat olib, Daburu Po'yirozdek dahshatli shamollarga yengilmagan, qulaganda ham qiyinog'ini bildirmagan daraxtlar deganda, o'z millatini uyg'onishga, g'aflatdan qutulib, o'zligini anglashga undagan, biroq sho'ro bo'ronlari qulatgan buyuk daraxtlar – Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir-u Fitrat kabi millat qahramonlarini nazarda tutayotganini bilish qiyin emas. Qulagan bo'lsa-da, bu daraxtlarning ildizi baquvvat edi, ular shu sabab ham tirik. Shu sabab ham Istiqlol suvi va mehri bilan qayta tirildi, ma'rifatparvar zotlarning nomi qadr va ehtirom bilan tilga olinadigan bo'ldi. 1983 yilda – ayni sho'ro qilichi o'ynab turgan pallada yozilgan ushbu she'rda shoirning asl dardi, asl qayg'urgani millat va unga suyanch bo'ladigan buyuklar yodi edi. Shavkat Rahmon bu haqiqatni daraxt detali orqali mohirlik bilan yuzaga chiqardi.

Ma'lumki, Shavkat Rahmon uchun Turkiston va uning erki juda muqaddas edi. Shu sabab shoir yurti va hatto o'zini taqdirini o'ylamay, beg'am yashayotgan odamlardan nafratlanib ketadi. Buni biz "Avtobusdagi o'ylar" she'rida yaqqol ko'ramiz. She'rni tahlil qilar ekanmiz, Muhtaram Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida qayd etilgan haqqoniy fikrlarga yana bir bor ishonchimiz komil bo'ladi: "Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq olamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi"¹. Zero, loqayd odam dushmandan ham xavfliroqdir. Shoir loqayd va beg'am odamlarni qayergadir olib ketayotgan badbin zamona timsolini **avtobus** detali yordamida aks ettiradi.

¹ Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 124-bet.

Dastlab qishloqlarimizning o'ta milliy tasviri, tabiat, odamlar va yo'lovchilarning fikr-hayollari uyg'unligida kelgan misralar ruhingizda kuchli ta'sir uyg'otgan bo'lsa, borgan sari shoirning so'zi qattiqlashib boradi. Nosoz jamiyat va unda ayollarning qadsizligini achchiq kinoya bilan yozadi:

*Paxtazor boshlanar,
kirza etikli,
yuzlarin quyoshlar yalagan qizlar.
ming bora egilib,
ming bor yalinib,
har bitta g'o'zani uyg'otar sizlab. (-B. 236).*

Bu lavha o'zbek ayollarining qora mehnatdan boshini ko'tarmay yashaganining jonli ifodasidir.

Avtobus ichidagi yo'lovchi (shaharlik) qishloq uylariga, ularning ko'rimsiz eshiklariga hayrat bilan qaraydi. Chindan ham shaharlardagi ayrim uylardan farqli ravishda bu yerda "ko'rimsiz eshiklar mangu yopilmas". Bu esa qishloq odamlarining bir-biriga ishonchi, qaysidir ma'noda o'g'irlikni hayoliga keltirmasligiga ishora. Yo'lovchi tasvirlashda davom etadi:

Teragidan ko'ra majnuntoli ko'p...

Nega shunday? Sababi qora mehnatdan ezilgan xalqning qaddi dol, u terakdek tetik emas, majnuntoldek egilgan.

She'rning davomi Turkiston nomi bilan bog'lanadi:

*Mayxonaga o'xshar
avtobus ichi,
yosh-yalanglar chaynar nag'malarini.
Bir butun odamni ko'rmadim bunda,
ko'rdim men odamning zarralarini.
Ko'ngil ag'darilar
latifalardan,
orzular, qarashlar naqadar kalta.
Nega gapirishmas separatchilar*

Indira Gandini otgani haqda?!

She'rdavtobus – zamonavaravasi sifatida talqin qilinadi. “Bu zamonaravasida kirza etikli, qo'llari yerday qorayib ketgan zahmatkash qizlarga ham, yerga botib ketgan siniq tabassumli g'arib bahodirlar singari odamlarga ham o'rin yo'q. Mayxonaga o'xshagan talotumli bu zamon aravasi orzu-qarashlari kalta, ko'ngil ag'dariladigan siyqa latifalar aytib ketayotgan odam zarralarini olib yelib boradi. Undan ham yomoni, nag'malarni chaynab borayotganlar aravasi sabr daraxtiday o'sgan odamlar uchun ushalmas orzular kemasiday bo'lib ko'rinadi.

Bu lavhada ham milliy fojialarimizning eng ko'p urchigan turi – maydagaplik. Burnining tagidan uzoqni ko'rolmaslik, kaltafahmlik, biqiqlik, mahdudlik, ijtimoiy ongning cheklangani, dunyoda keyaayotgan jarayonlardan xabarsizlik shoirmi kuyuntiradi. U atayin talmeh qilib Indira Gandining otilganlik voqeasini tanlashi ham aniq. Bu falsafiy xulosa uchun zarur. U – hind xalqining erk va istiqlol timsoli, haqsizlik, zo'rlik, fitna qurboni.

Bular yashaydilar

qaysi kunlarda,

qayga boradilar, kimga yukinib?

Bu faoliyatsizlik, dunyoqarashning torligi muallifni qattiq qayg'uga soladi.

Uning:

Shular o'ylarmikan tuprog'imizni,

shular ko'tararmi elning yukini?!

Qani birortasi

bitta so'z aytsa,

so'qimlar davrasin nogoh to'zitib,

shoir yuragimni yulib berardim

birgina Turkiston degan so'z uchun.

-degan nolalari O'zbekiston Qahramoni A. Oripovning XX asrning 60-yillarida yozgan:

“Xudbin tengdoshimga qarayman g'amgin,

Ko'lmak davra ko'rsam, ezilar ko'nglim.

Xalqim kelajaging o'shalarmikin?

Xalqim o'shalarga qolmasin kuning”, –degan satrlarini esga oladi. Nihoyat, shoir yuragini to'ldirgan hasrat Turkiston ozodligi va turkiylar birligini ko'rishdek muqaddas orzuni bor kuchi bilan kuylaydi.”¹

Bunda esa shoir tanlagan avtobus detalining kuchi she'rdan ko'zlangan maqsadni ochishga xizmat qilgan. Nega shoir aynan avtobusni tanladi, odamlari ko'p bo'lgani uchunmi? U holda choyxona yoki bozorni ham olishi mumkin edi-ku? Bu yerda aynan avtobus turkistonliklarni oxiri yo'q manzilga, umuman, allaqayergadir olib ketayotgan tuzumni ifodalash uchun ham kerak edi. Tan olish kerakki, avtobus detal sifatida Shavkat Rahmonning noyob va ibratli topilmasidir.

Ushbu bobning har ikkala faslida shu taxlit badiiy detallar ketma-ketligi, ularning shoir ijodidagi salmog'i, ma'no va mazmun ko'lami bilan tanishtiriladi.

¹И. Ғаниев, Н. Афоқова, А. Ғаниева. Шавкат Раҳмон олами. –Тошкент: Академнашр, 2013. 120-121-бетлар.

Birinchi fasl.

OBRAZLAR SILSILASI VA ULARNING YUZAGA KELISHIDA BADIY DETALNING O'RNI

Shavkat Rahmon lirikasi betakror obrazlar silsilasidir. Shoir har bir fasl, tog', daraxt, soy, oy, yulduz, bulut, giyoh, xazon, bog', gul, qush, kapalak, dengiz, o'rmon, bo'ri, tun, ko'z, quyosh, yer kabi obrazlar zamiriga yangi-yangi ma'nolarni jo etadi, favqulodda fikrlar aytib, kutilmagan hayotiy xulosalar chiqaradi. O'z fikriga o'quvchini ergashtirib, uning hissiy, aqliy quvvatiga ta'sir etib, she'rning umumiy pafosiga uni ham sherik qiladi. Shu bois aytish mumkinki, shoirning har bir yaratgan yangi obrazi – yangi bir betakror hilqat!

Ma'lumki, "Obraz mohiyatiga ko'ra harakatdagi voqelikdan iborat", - deydi professor Bahodir Sarimsoqov. Bu voqelik ijodkor ongida qayta idrok etilib, dunyoqarash va idealga uyg'unlashtirilib, so'ng obraz sifatida yaraladi. Har bir obrazda hayotning bir parchasi, qandaydir voqelik, ruhiy holat botin bo'ladi. Endi mazkur obrazning qanchalik tabiiy, go'zal, jozibali, hayotiy, favqulodda yaralishi ijodkor shaxsning ruhiy olami, hissiy va aqliy qudrati, darajasi va estetik idealiga bog'liq. Ana shularning hammasiga g'ayb bir payg'om – ilhom ham qo'shilsa, to'g'rirog'i asos bo'lsa, asar barkamol, badiiy mukammal chiqadi."¹

Shavkat Rahmon lirikasida shu qadar original obrazlar mavjudki, har bir qo'llangan obraz, ikkinchi yo uchinchi she'rda o'zga ohang (ha, ohangi ham o'zgaradi!) va ma'no ramz falsafani akslantiradi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, uning she'rlarida obrazlarning shakllanishida detallarning o'rni katta. Shoir avvaliga biror detalni qo'llab, unga ma'lum vazifa yuklagan bo'lsa, she'rdan-she'rga uning ma'no ko'lamini kengaytib, obrazga aylanadi, ya'ni obrazning obraz bo'lib shakllanishida uning detallik bosqichi ahamiyatlidir. Ana shunday detaldan o'sib chiqqan obrazlardan biri **oydir**.

Oy gulladi. Osmon toqiga

Yulduzlarni kimdir qoqadi.

O'zanlarda sokin to'lg'anib

¹И. Ганиев, Н. Афокова, А. Ганиева. Шавкат Раҳмон олами. –Тошкент: Академнашр, 2013. 40-бет.

Tag'in quyuq kunduz oqadi (B.73).

Oy haqida mumtoz she'riyatlarimizdan boshlab shu kungacha yuzlab o'xshatishlar bor. Lekin bu yerda oyning gullashi – atrofida yulduzlarning guldek ko'rinishi nihoyatda go'zal topilgan. Ko'z o'ngingizda darhol olma yoki shaftoli gulini yulduzday sochilgani namoyon bo'ladi.

Shavkat Rahmon lirikasi uchun istioraviy o'xshatishlardan keyin obraz yaratish an'ana-uslubga aylangan. Har qanday obraz hayotiyli, joziba-ta'sirini ta'minlash uchun aniq bir makon va zamon bo'lishi kerak. Shavkat Rahmon lirikasida makon va zamon masalasi hamisha tayin, ishonchli, faol. Chunki har bir obrazda shoirning voqelik, hodisaga shaxsiy munosabati bor. Unda shoir dunyoqarashi, ideali, estetik olami mujassamlashgan.

Shoir lirikasini sinchiklab kuzatgan shaxs eng ko'p uchraydigan an'anaviy, ayni paytda, individual obrazlarni tez payqaydi. Bular eng xarakterli, betakror, faqat Shavkat Rahmon lirikasida o'zgacha ma'no, qirra, ramz, falsafa aks ettiradigan obrazlar⁵: it (20); qush(19); xoin (16); bulbul (15); tog' (14); qul (10); daraxt (10); vaqt (9); ot (8).

Ana shu faol obrazlarni shoir har bir she'rda yangi bir ma'noda, yangi bir fikr, g'oya, tasvir, hodisani ta'sirchan anglatish uchun o'z o'rnida, mantiqiy izchillikda, hissiy va aqliy quyuq mushohada bilan istifoda etadi.

It obrazini kuzataylik.

(“Tarixiy ong” she'rida):

Chumolidan battarroqsan sen,

Vaqt o'tar jismingni yanchib.

Ikki ko'zing – ikkita kuchuk,

Qarolmaysan atrofga ranjib (-B.92).

“Bir xoin xususida”:

Azaliy ko'zlari

It ko'zlariday...

Yuzida azaliy dardi bor edi (-B.179).

Bu yerda xoin ma'nosida.

“Qasida”dan:

*Daraxtlar -
men itday sezdim o'zimni,
go'yo tirik jonmas, kesilgan dastman (-B.250).*

Bu yerda it xor, bir joyga bog'lanib, o'sha erda aylanib, erkin harakat qilolmaydigan mavjudot ma'nosida.

“Buddaga bir nazar”dan:

*Ko'zlari chilparchin,
Itday qaytarman.
yotarman intiq-zor bo'lib royiga.
Ming yil o'tsa hamki hayoloti shon
Insonday qaytolgan inson poyida (-B.281).*

Bu yerda it sadoqat, e'tiqod, ixlos, umidvorlik ma'nosida.

“Katta kun”dan:

*Bu qanday kun o'zi,
qanday kun o'zi,
hattoki mushuklar, itlar ishshaydi (-B.295).*

Bu yerda vaziyat, zamon o'zgarishi bilan turlanib turuvchi odamlar ma'nosida.

“Turkiylar”:

*Ilvasin yigitlar,
bobur yigitlar
Sajdaga bosh qo'ydi yovga ters qarab,
Gullarni kemirib yig'ladi itlar,
Buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab,
Turkda bosh qolmadi...(-B.338).*

Bu yerda odamlar dardingni anglamaganda, iztiroblaringdan iztirob chekkan sadoqatli do'st, ma'nosida.

“Sharhi hol”:

Burg'ular chirigan...

Zanglagan tig'lar...

Itlar tamoq ichar oltin tojidan (-B.341).

Bu yerda it bosqinchi, zulmkor ma'nosida.

“Bir suvrat taassuroti”:

Qaragin,

Xeshlaring orasida jang,

Elating to's-to'su it-mushuk bo'ldi (-B.348).

Bu she'rda it bir-birini arzimas narsa, o'tkinchi gap-so'z, manfaat deb g'ajib, asosiy yov – bosqinchini tanimagan millat ma'nosida.

Yana shu she'rda:

...voy, odam.

Voy itning kalta oyog'i ... (B.348).

Bu yerda kalta uy, aqlsiz, farosatsiz, mushohadasiz, o'z manfaati uchun hech narsadan toymaydigan nafs quli ma'nosida.

“Yomg'ir”:

Yalab sob qilindi buyuk g'urbatda

ochilgan konlarni tozi itlar-da.

Bu she'rda it – bosqinchilar, yovlarning tozilari – o'zlariga o'rgatilgan malaylari obrazini gavdalantirayapti.

“Ommaning ahvoli”:

Erlar qaytar edi itlarni sizlab,

otalar chirigan mayxonalaridan.

Bu she'r o'ta achchiq, nafrat, kinoya bilan imperiyaga qarshi bir isyon sifatida yozilgan. Bu yerda o'zligini unutgan el, atayin aroqqa o'rgatilgan millat fojiasi kesatq bilan aytilayotir. Bu yerda it mustamlakachi zolimlar ma'nosida. Mustamlakachilar barpo etgan mayxonalar otalarni ham, bolalarni ham mayib-majruh qilgan.”¹ Shoir ilk she'rlarida qo'llay boshlagan it detalining ko'lamini kengayib, shoir qarashlarini ifoda etuvchi obrazga aylangan. Birgina it obrazini

¹ И. Ғаниев, Н. Афоқова, А. Ғаниева. Шавкат Раҳмон олами. –Тошкент: Академнашр, 2013. 41-42-bet.

o'ndan ortiq ma'nolar bilan ifodalash esa shoirdan har tomonlama sinchkovlikni talab etadi.

Endi **qushlar** obraziga e'tibor qarating.

*Qushchalar,
sayroqi qushchalar
Qafasda bo'g'ilib sayrashar,
Betoqat tipirlab simlarga
o'ralgan olamga qarashar...*

Bu misralar ham daf'atan erksevar shoir Abdulhamid Cho'lponning 1924 yili yozilgan "Qushning hadigi" she'rini esga soladi. Unda "ulug' zehniyat" bilan qurilgan qafasga o'zini urib, chirqillayotgan qush tasvirlangan. Bu qushning yodihayoli dalalarda, o'rmonlarda erkinlikda. Shu bois u shiplarga yalinadi, tomni teshib chiqmoqchi bo'ladi, o'zini devorlarga uradi. Ammo atrof karaxt, hissiz devorlarning sezgisi yo'q, tuyg'usi yo'q, tovush bermas. Tegra – butun ruhsiz gavda: "Nechun mundoq bo'lding?"-demas...

Qushlar – erkinlik, hurriyat, ozodlik ramzi. Ana shu sayroqi qushcha – erkin kuylaguvchi, ozodlikni sog'ingan lirik qahramon qafasda, bu ham etmagandek, bo'g'ilib sayrar! Uning ovozi – yurt, shoir, elining ozodlik ramzi. Bu erda qushcha huddi Cho'lpon she'riyatidagi singari istioraviy obrazga aylantirilgan. U butun bir xalq, millat, lirik qahramon-shoir qalbi, erki, o'zligi. Ammo Shavkat Rahmon Cho'lponni shunchaki boshqacha shaklda takrorlamasdan, qush obrazini rivojlantiradi. "Qushning hadigi"da qush o'z holiga achchiq-achchiq bo'zlasa, o'zining hurlik chog'larini sog'insa, Shavkat Rahmonda qush bitta emas, ular ko'pchilik. Ikkinchi tarafdin esa:

*Qushchalar,
ozodruh qushchalar
olamdan ko'zlarini uzmaydi,
chirqirab o'zlarin holimas,
o'zgalar holiga bo'zlaydi.*

Ha, bu qushchalar o'z holiga emas, o'zgalar holiga bo'zlaydi. Ular ozodruh, ha, ular jismonan qafasda bo'lsa ham, ruhan ozod. Go'yo inson qamoqda bo'lgani, qo'li kishan, zabun, xor bo'lgani bilan, ongda, fikran ozod bo'lganidek, chunki uning fikrini kishanlash imkonsiz-da! Qafasning o'zi-ku cheksiz bir zulm, shu zulm simlari ichidan munavvar olamni ko'rib, bu erkin, ozod olam bilan o'zini qiyoslash azobichi?! Lirik qahramonning o'zi qafasda, mahkum, lekin yana o'z holiga emas, o'zgalar – millatdosh, jabr, zulm, zo'ravonlik ko'rsatayotgan zamondoshlari uchun bo'zlaydi. Bu lirik qahramon mustabid zamonlarda ham boshi ustida turgan qilichdan aslo qo'rqmay, zulmga qarshi so'z bilan keskin, murosasiz kurashgan o'tyurak, qaysarruh shoir Shavkat Rahmon edi.”

Shoir she'rlarida bulbul obrazi ham alohida ko'zga tashlanadi.

Yana yaproq yozgan daraxtga,

atirgulga do'narsan nuqul.

Kechalari chap ko'kragingda

qafasini sindirar bulbul (-B. 33).

Bulbul – bezovta qalb. Shunday kunlar keladiki, go'yo yaproq yozgan daraxtdek baxtga to'lasan, go'yo “atirgulga do'nasan” – go'zallik ramziga aylanasan. Ho'sh, bu qanday kun?! She'ring biror satrida bunga aniq ishora yo'q. Lekin Shavkat Rahmon ijodining estetik ideali, dunyoqarash va maqsadidan mazkur kunning nomini topish mumkin. Bu – Ozodlik, erk kuni, Turkiston va turkiylar hurlikka erishgan kun.

“Ijodkor ko'pincha o'z estetik idealini, badiiy g'oyasini tabiatdan olingan ramzlar vositasida ifoda qiladi. Har bir shoirning poetik olamini ko'rsatadigan betakror obrazlari bo'ladi. Deylik, "Binafsha senmisan, binafsha senmi" deganda Cho'lpon esga keladi. "Na'matak" Oybekdan darak beradi. "O'rik gullaganda"– Hamid Olimjon ta'biri, "Majnuntol tagiga o'tqazing meni" – Mirtemirning shoh satri. Bunday obrazlar gohida shoir dunyosining belgilovchi xususiyatidek taassurot qoldiradi. Shavkat Rahmon she'rlarida "tog'" obrazi ko'p uchraydi. Shoirning "Uyg'oq tog'lar" degan to'plami, "Yosh tog'lar", "Sulaymon tog'i etagidagi o'ylarim" nomli she'rlari bor. Uning she'rlarida "tog'larning musaffo

qori" ko'zga tashlanadi, uning she'rlarida tog'lar so'zlaydi; "tog'lar – abadiy cho'kkan nortuyalar"ga o'xshatiladi, shoir tog'larning guldirosini eshitadi va hatto, tog'larning "ko'zini topadi".¹

Shavkat Rahmon she'riyatida esa tabiatning har bir bo'lagi, har bir she'rda biri ikkinchisini takrorlamay, uchinchisi to'rtinchisidag o'zga-o'zga, yangi ma'no, ramz va fikr tashiydi, jonlantiriladi. Birgina **TOG'** obrazining o'zini rang-barang ma'nolarda qo'llaydi.

Tog' –mag'rurlik, yomonliklarni to'sguvchi, sabrli, g'am-alamni ko'taradigan, oh, ux chekayotgan shaxs, u – bahodir, u – tarix, qanoat, u – go'zallik, u – qalqon, u – yovdan himoya, u – hasratdan ulg'aygan qoya va h.k.

Tog' xo'rsinib yubordi og'ir –

vodiylarga yugurdi shamol,

Yuzlarini yashirdi hilol.

Tog' xo'rsinib yubordi og'ir –

teran xobdan uyg'ondi yurak,

mog'lar kabi xo'rsinmoq kerak.

Tog'ning xo'rsinig'i – shamol. Mana shuning o'ziyoq kutilmagan obraz. Tog' nega og'ir xo'rsinadi? Bunda ham ma'no bor. Chunki she'r, aslida, bahor haqida. Qishdan, qor-u ayozlardan zerikkan tog' og'ir xo'rsinib yuboradi. Bu xo'rsiniq esa shamolga aylanib, vodiylarga yugurib, butun borliqni uyg'otib yuboradi. Hilol ham endigina boshlangan yangi faslning atributi, u yuzini bulutlar bilan yashiradi. Bularning hammasi esa, shubhasiz, bahor manzaralari. Tozargan havolar, bulutlarning shaffof hijobi ortidan maftunkor boqib turgan hilol, vodiylarda o'ynoqi bolakayday yugurib yurgan mayin sabo - bularning bari esa yurakni uyg'otib yuboradi. Xo'rsinsang, bahorni boshlab kelgan tog'day xo'rsingin ekan!

Eng oxirgi she'rlarining birida shoir:

"Nodirajon, Shoirajon,

tanam qimir etmaydi,

olis - olis vohalardai

¹ Шавкат Раҳмонни хотирлаб. Каримов Б. Шоирнинг ўткир сўзи. –Т.: Шарқ, 2012. 129-bet.

*tog'larimni chaqiring...,
"...boring, qorli tog'larga:
bir shoir yotibdi deng,
Xudoning hovlisida...*

-deb yozadi. Shoir shu tarzda tog' bilan tillashadi, uxlab yotgan tog'larning uyg'onishini xohlaydi.

Shavkat Rahmon ijodidagi bu estetik hodisaning o'z ruhiy-psixologik asosi mavjud. Nazarimda, shoir esini taniganidanoq toqqa nazari tushgan, tog' bilan yurgan, tog' bilan nafas olgan. Shu ruhiy asos uning she'rlariga ko'chib, badiiy libos kiygan va jonli tog'lar obrazi tug'ilgan. Og'ir kasallikka chalingan kunlarida ham u "tog'larga ko'chib ketish"ni istab yotadi. "Zilol suvlar jildirab oqayotgan, musaffo havosi rohat bag'ishlaydigan tog'larga o'tov tikib yashashni orzu qiladi"¹

"Shu o'rinda bir rivoyatga murojaat etamiz. Hakimlar aytishadi: "Mustaqim (to'g'ri yo'ldan yurgan) kishi toqqa o'xshaydi. Tog'da to'rt alomat bor: u issiqda erimaydi, sovuqda muzlamaydi, shamolda qimirlamaydi, sel oqizib ketmaydi."

Bu rivoyatni, tog' va inson qiyosini istagancha sharhlash mumkin. Deylik, mustaqil odam maqtovlardan taltayib ketmaydi. O'zini biladi. Nojoiz lafzlarga sukut bilan javob beradi. Nafsigga qul bo'lib, uning shamollarida uchmaydi..."²

Shavkat Rahmon she'riyatida armon obrazi ham bordirki, u bir qarashda ko'zga tashlanmaydi, ba'zan o'z nomi bilan atalmaydi. Shoir she'rlarining mutolaasi davomida uning aynan "Armon" deb nomlangan she'rini (1979 yilda yozilgan 1 ta she'ridan tashqari) deyarli topmadik. Demak, gap uning nomida emas, hammasi mohiyatda.

Shoir hech qachon "mana mening armonim", deb aytmaydi, bunday yo'sinda aytganida ham she'rxon baribir unga ishonmasligi mumkin edi. Shu bois u so'z ortiga asl so'zni yashirdi.

¹ Бу ҳақда қаранг: Шавкат Раҳмон. Сайланма. Р. Қўчқор ва Н. Боқий қаламига мансуб "Тул қаҳри" номли сўнгсўз.

² Шавкат Раҳмонни хотирлаб. Каримов Б. Шоирнинг ўткир сўзи. –Т.: Шарқ, 2012. 129-бет.

*Bunda har bir chechak,
har bir giyohning
osmonni to'sguday haybati bordir.
Bu diyor naqadar ulug' bo'lsa-da,
ulkan odamlarga naqadar zordir.*

Mana shu satrlarning o'ziyoq shoir elkasini ezib turgan dardning, millatidan chiqqan katta, jasoratli odamlarni ko'rishdek armonining yaqqol ifodasidir. Qolaversa, xalqining mash'um urushni ko'rgani va uning surati asrlar davomida bobolar ruhini bezovta qilajagini og'riq bilan yozadi "Urush suvrati" nomli she'rida:

*Qonga botgan dunyoni ko'rib,
azoblarga berolmasdan dosh.
Ulkan, qizil quyosh har kuni
olib ketar uzoqlarga bosh.*

Quyosh – nur, rizq, iqbol timsoli. Uning bu yerlardan bosh olib ketishi, yurtining ma'lum davrlar ichida ma'naviy nurdan ayrilishi shoirning armoni emasmi? Bizning bu ma'noni teranroq anglab olishimizga shoir qo'llagan botayotgan quyosh detali katta yordam beradi.

"Zamon har doim ham shoirning ko'nglidagi gaplarini ochiq aytishga imkon bermadi. Shu bois chechaklar-u giyohlardan, toshlarning gullashi-yu, tog'larning uyg'oqligidan shoir siz bilan biz o'ylagandan ko'ra ko'proq ma'no istadi. Ularni o'z fikrlarini ifodalash vastasiga – timsol-u ramzlarga, majoziy ifodalarga aylantirdi:

*Tosh ham gullarmi deb
minglab kaltabin
gurzisin do'latib yiqilgan paytda,
Mardona iljayib, ko'rasiz, dedim,
bir kuni gullaydi bu tosh albatta.*"¹

¹ Муллахўжаева Р. "Шавкат Раҳмон: шоирлик-қисмат." e-adabiyot.uz сайти.

Shoir bu so'zni ishonch bilan aytdi. Ammo o'sha buyuk toshlarning gullaganini, ya'ni, buyuk xalqni erkka yuz tutib, ajdodlar nomi oqlanganini ko'rolmagani, uning armoni edi.

Shu kabi ramziy ifodalarga boy mushohadalarni uning "Armon" nomli she'rida ham uchratamiz:

*Kuzak keldi bag'rimni dog'lab,
qo'lin cho'zdi giyohga, gulga.
Sayradilar so'ng bora, bog'lar
to'lib qoldi o'lik bulbulga...*

Iqror bo'lish kerakki, "kuzak" davri timsolida berilgan erksiz kunlar va "o'lik bulbullar", ya'ni zamona tilini kesgan, yozishga haqsiz shoirlar taqdiri Shavkat Rahmon yuragini timtilagan iztirob va og'riqning ifodasidir. Bundan tashqari, shoir o'ziga ham, so'ziga ham olov purkab "*Bormi er yigitlar, Bormi er qizlar*" deb hayqirganida, "*ichimda yillarning zanglagan tig'i*" deb holsizlanganida, "*G'am so'zin elimdan avvalroq aytdim, Baxt so'zin aytaman eldan keyinroq*" degan iqrorida ham aziz tuprog'ini yotlardan tozalangan holda ko'ra olamanmi, degan armondan tutab borayotgandi.

*Yetar shuncha ta'rif
nozik zamonda,
Agar aytib qo'ysam ta'rif adog'in.
Yonib ketishingiz mumkin armondan,
armon –bu og'ir dard,
judayam og'ir.*

She'rdagi **zamon** detaliga e'tibor bering, u oddiy emas, "nozik zamon". Zamonning shu birgina nozik degan xususiyati esa shoirning armoni nimada ekanligini ko'rsatib turibdi. Chunki nozik zamon arosat zamon degani, Vatan va vatandoshlar taqdiri bir yoqlik bo'ladigan pallalar degani.

Aslida, armonning katta-kichigi bo'lmaydi. Ba'zida bitta do'st topa olmagan armon deyilsa, yurtningda bitta chechakning emin-erkin gullay olmagan ham fojia bo'lar ekan. Bu borada Shavkat Rahmon haq:

Armonim ulg'aydi...
Kecha so'ylardim
qaniydi bo'lsa deb birorta mard do'st.
Armonim ulug'dir
ko'z yoshim ulkan,
O'lsam, jasadimga yurtim to'lajak.
So'nggi zuryodimni zaharlar qullar,
so'nggi chechaklarim aynib so'lajak.

Ko'rinib turibdiki, shoir o'zining mayda dardlari, mayda armonlari bilan o'ralashib qolmagan. Uning ko'ngliga millatning hasrati og'irroq botadi. Buni xoh "Sendan-da ulug'roq narsa yo'qligin, sochim oqarganda angladim, Vatan!" deb o'ksinib yurgan bolaning ohi deb, xoh "Men jangchi emasdim, men shoir edim", deb, quroli – qalamini mahkam tutgan botirning iqrori deb qabul qiling.

Shavkat Rahmon umrining so'nggi yillarini og'ir xastalikda o'tkazdi. "Mening har bir kunim **o'limga** qarshi" deya ayta olgan shoir chindan ham shunday yashadi. O'lim bilan kurashayotgan kezlari ham o'tli she'rlar bitdi. Uning so'nggi she'rlaridan tug'ilib o'sgan tuprog'ini – O'shni sog'inib ketganini, munglig' ko'zlarini Sulton O'shining yo'llariga tikkancha yumganini anglash qiyin emas.

Abadiyat oralab
O'shga qachon etamiz?..

Shoir ona tuprog'iga yetib borolmadi. Bu esa bir go'dakqalb shoirning juda katta ARMONi bo'lib qoldi. Agar O'sh detali satrlar ichida mana men deb turmaganida biz shoirning asl armoni tug'ilgan yurtiga bo'lgan sog'inch hissi ekanligini anglolmagan bo'larmidik.

Shavkat Rahmon neki orzu qilmasin bariga, tom ma'noda, erishdi. Millatimiz hurfikr, Vatanimiz ozod, Istiqlol shabodalari erkka tashna xalqimiz qatori qalam ahlining ham ko'ksini yayratib yubordi. Ishonchimiz shuki, Xudoning hovlisidan turib, bugungi qutlug' kunlarni kuzatayotgan shoirning zulfiqor ruhi xotirjam kezib yuribdi.

Shavkat Rahmon she'riyatida armon obrazi va uni talqin etgan badiiy detallar hali ko'p tahlil va tadqiq qilinadi, yangi xulosalar, fikrlar beriladi.

Shoir she'riyatini tadqiq etayotgan odam undagi vaqt falsafasiga be'tibor o'tolmaydi. Shoir vaqtga, hatto uning bolalariga ham, tom ma'noda, sig'inadi. Har daqiqa, lahza, soniya ham uning uchun chikora emas. Shoirning iqrori shuki, vaqt hech qachon insonga qul bo'lmaydi, u sizdan, bizdan tashqari chiqib ketish, ya'ni bizni tashlab ketish qudratiga ega. Bunda vaqtni o'z vujudiga qamay olganlarga yutadi:

*Vaqt senga qul bo'lmas asla,
undan kutma muruvvat, ta'ma.
Sig'in unga, yolvorgin, avra,
bir amallab vujudga qama.
Qul bo'lolmas senga, baribir,
vaqt hamisha hushyor, jangari –
Yorib tashlar jismingni nogoh,
chiqib ketar sendan tashqari. (-B:154.)*

Shoir vaqt obrazini talqin qilar ekan, uning har bir urinishida **daqiqa** detali yuzaga chiqadi. U o'sha daqiqani ham mahkam tutib olgancha yashashni, yashaganda ham dunyoning barcha qora narsalarini o'ldirib yashashni istaydi:

*Yashamog'im zarur har daqiqani
g'azab bilan, sevgi bilan to'ldirib.
Dunyodagi barcha qora narsani
yorug' lahzalarda o'ldirib. (-B:25.)*

Umrining bir misqolini ham avaylab yashashga urinayotgan shoir ne bo'ldiki, butun boshli asrdan (shunday katta vaqt-a!) bezidi, uning tugashini istadi. Nega u aynan yigirmanchi asrdan kechishga tayyor? Ha, bu shunchaki yuz yil emas. XX asr shoir va u kabilarning qalbini iztirobga to'ldirdi. Bu davrda o'z xalqining g'aflatidan, erksizligidan, ma'nan, ruhan xo'rlanishidan, azaliy qadriyatlarining toptalishidan ezilgan shoirning ko'zlari o'zligini unutayotgan

xalqni endi ko'rishga toqati yo'q, bu asrning bir soniyasini ham yashashni istamaydi. Chunki qullikning bir soniyasi ham qullikdir:

Yigirmanchi asr!

Tashlab ket meni,

boqiy go'zallikni bilmas bu olam.

Ming yilni yelkamda ko'tardim, endi

malol kelayotir soniyalar ham... (-B:30)

“Soatga cho'zilgan har daqiqani” sog'inib-sog'inib yashayotgan, “ulkan soat o'rtasida” madorsiz turgan shoirning dushmanlari endi huddi “to'xtagan soatlar misoli” juda olisda, keraksiz. Unutilgan, qadrsiz buyumday turgani uning diliga bir oz bo'lsa-da taskin beradi. Bizningcha, shoirning xiyonat, orsizlik, g'aflat, qullik singari dushmanlarini aynan to'xtagan soatga o'xshatishida ham bir hikmat bor.

Yashaging keladi...

Faqat umrni

qumsoat singari to'nkarib bo'lmas.

Agar **qumsoat** va uni qaytarib to'nkarib bo'lmasligi haqiqatni aytmaganida, shoirning vaqt va umr borasida xulosasi bunchalik rost chiqmagan bo'lardi. Bu esa detalning kuchi.

Daryoga aylandim

O'ychan daryoga,

Ruhimda qadimgi osoyishtalik.

Qa'ringa berkitdim dolg'alarimni

Ruhimga bo'ysundi dunyo ishlari (-B.146)

Fikrning daryoga o'xshashi oqim, dolg'alarni (xotira, tarix, munosabat, ishq, nafrat, muhabbat va h.k) qa'riga olib, “berkitib” yurishi – o'ta nafis topilma. Insonning “daryoga aylanishi” ham uning qadimdan mavjud bezovtaligi, shiddati, qudrati, sokinligi, bu sokinlik ichidagi yashirin imkoniyatiga ishora.

O'ylayman yashamoq mohiyatini,

qattiq nigohlarim osmon xatida.

Vujudim sezmayman,

lazzat olaman
har fikr – ruhimning harakatidan.
Biroq o'jar kunduz
tovlanar ekan,
yashil zamzamali yiroq tog'lardan.
Irmoqlar - jodugar pari qizlari
boshlab kelar toshloq qirg'oqlarimga,

Shoirning o'zi, fikri - **daryo**. U shu sokin oqim, hayot qa'rida o'z umri, kurashlarining mohiyatini sezadi, ruhan yengil tortadi – «vujudim sezmayman», uning qalbi, ruhi, orzulari bezovta. «O'jar kunduz» – har soat, soniyada holati o'zgarib turadigan kunning daryoda jilolanishi, akslanishining musavvirona tasviri Mazkur o'jar kunduz shu qadar zo'r, rango-rang tovlanadiki, bunga sabab «yashil zamzamali yiroq tog'lardan» uning harakat - «fikr» olishi. Bu yerda tog'ning va suvning ajoyib, bir-biriga uyg'un zamzamani tashkil etishi – tabiiy go'zalligi favqulodda go'zal ilg'angan.

Yuqorida tahlili berilgan obrazlardan tashqari Shavkat Rahmon she'riyatida dunyo, irmoq, bo'ri kabi obrazlar ham borki, ular alohida tadqiq etish va o'rganishni talab etadi. Umuman olganda, Shavkat Rahmon she'riyatini to'liq anglashga undagi obrazlar silsilasi va ularning yuzaga kelishiga dastlabki zina bo'lgan detallarni o'rganish orqali erishish mumkin.

ISTIQLOL MAVZUSINI YORITISHDA SHOIRNING BADIY DETALLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Ma'lumki, "har davrning o'z qiyofasi, yurish-turishi bo'ladi. Ayni o'zgachalik, ko'pincha, shu davrda yashagan insonning umumiy kayfiyatini belgilaydi. Zero, odamzodning hayoli har qancha uchqur bo'lmasin, u o'z davrining ko'rinmas rishtalaridan batamom uzilib ketolmaydi. Shu ma'noda XIX asrning qariyb ikkinchi yarmidan XX asrning so'nggi o'n yiliga qadar davom etgan uzun muddat har xil shakllarda turlanishiga qaramay, mohiyatan istibdod davri bo'ldi. Va bu istibdodni anglab etgan shoir xoh u, xoh bu ko'rinishda bo'lsin, qat'iy nazar, ozodlikni kuyladi, istiqloлга yetishni orzu qildi, xalqni shunga chorladi. Chunonchi, asrimiz avvalida Cho'lpon «Kishan kiyma bo'yin egma, Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!» deb hayqirgan bo'lsa, asr poyoniga yaqinlashganda Shavkat Rahmon «Surilar bu temir pardalar, istibdodning tug'lari qular» deb bashorat qildi. Uning "Har bir so'z yuz so'zning o'rnini bosar — **Vatan Xalq Jasorat Kurash Ozodlik**" deb yozishi bejiz emas. Chunki bu so'zlarning har biri shoir hayoti ma'nosini tashkil etgani haqiqat. Albatta, bugun istiqloлга erishgan yurtda yashayotgan, ayniqsa, yosh zamondosh uchun bunday so'zlar bir qadar balandparvozdek, asl hayotdan uzoqroqdek tuyulishi mumkin... Unutmasligimiz juda-juda zarurki, bugun yuzaga kelayotgan har qanday «boshqachalik» aynan Vatanning Ozodligi bilan, Xalqning o'z kelajagi yo'lidagi Jasorat bilan Kurashmog'i bilan tirikdirki, bu ma'nolarni o'z bag'riga jo qilgan so'zlarni Shavkat Rahmon bir misraga tizgan:

*Vatan Xalq Jasorat Kurash Ozodlik.*¹

Shavkat Rahmon uchun oddiy, o'rtamiyona mavzuning o'zi yo'q edi. U har bir mavzuga joni bilan kirishib, uning ichida yashagan. Ayniqsa, Istiqlol mavzusisiz Shavkat Rahmon she'riyatini tasavvur etish ilojisiz. Chunki dastlabki bob va fasllarda aytib, izohlab o'tilganidek, Shavkat Rahmon – erk kuychisi.

¹ У. Ҳамдам. Шоир - "гузалмас" ҳақиқатпараст. //http: kh-davron.uz сайти

Shoir Istiqlol mavzusini kuylar ekan, har bir obraz va har bir detalga sinchkovlik bilan yondoshadi. Ularning she'rdagi vazifasini aniq belgilab beradi. Tahlillarimizga ko'ra, shoir bu borada eng ko'p murojaat qilingan tosh, kishan, qafas, daraxt, kun, bo'ri, minora, qon, tuproq, qo'shiq, quyosh, shamol va yomg'ir singari o'ttizga yaqin badiiy detallar shoirning erkka, ozodlikka tashna yuragining aksi bo'lib xizmat qilgan. Quyida ularning ba'zilarini alohida tahlil etishga urinamiz.

Erksizlikning belgisi – qullik. Qullikning belgisi esa kishandir. U ko'rinadigan yoki ko'rinmaydigan **kishan** bo'lishi mumkin.

Yelkamda

qaqshagan asrlar yuki:

kishanlar,

faryodlar,

so'ngsiz urushlar...

Shoir yelkasini qaqshatgan yukning eng yomoni – kishan. Garchi bu so'z butun she'r davomida bir marta ishlatilgan bo'lsa-da, izziz ketmadi. Lirik qahramon yuzlari og'riqdan burilishiga ham ana shu kishan sababchi. Shoir har bir qadamini o'linga (erksizlik – o'lim degani) qarshi qo'yadi. Asrlar davomida qullikni o'limdan battar ekanligini anglagan xalq bir kun kelib goh ko'rinib, goh ko'rinmaydigan kishanlarni yorishiga bir yorug' umid bilan qaraydi.

Biz zaminni mehrga o'rab,

olov chiziq tortgancha Tunga.

Burchimizni oqlab tobora,

yaqinlashib boryapmiz Kunga.

Ikkita katta harflar bilan yozilgan (bu shoirning xohishi) Tun va Kun so'zlariga e'tibor bering. **Tun** – qorong'ulik timsoli. Elining qora kunlari esa erksiz kunlar. Yaqinlashib kelayotgan **Kun** esa shoirning ta'biricha, bugun-erta boshimizda porlaydigan Istiqlol quyoshi va u ziyolantirib yuboradigan dorulomon kunlarning ishorasidir. Shoir qo'llagan har ikki detal she'rning istiqloлга intilish ruhida ekanligini dalillamoqda.

Vatan, ona zamin timsolini anglatish **tuproq** detaliga yuklatiladigan an'anaviy vazifadir. Shavkat Rahmon she'riyatida ham uning ana shu vazifasi birmuncha kengroq ko'lamda ko'zga tashlanadi. Shoir tuproq deganda, nafaqat zaminni, balki shu zamin tuqqan bolalarni va yana o'zini tushunadi. Shu bois mustabid tuzumning oyog'i ona zaminini ezg'ilaganidan qattiq og'rinadi, "Nahot, bu o'sha yer", deb kuyunadi:

*Tuproq'i elangan,
tog'i tuyilgan
zarlari terilgan zarrama-zarra... (-B: 348)*

She'ning davomini ham keltirishimiz mumkin edi. Biroq shoir dardining katta sababi ham, havotiri ham shu yerda. Tuproq pastda, undan nihollar, chechaklar unadi (agar toptab yuborilmasa). Shoir tuproqning elanganini millatining kelajagi yemirilayotganining nishonasi deb biladi.

Bu tuproq qachon asl **yerga** aylanadi? Erk va uning haqiqiy egalari bo'lgandagina:

*Erk qani,
er qani,
asl yer qani?*

Shoirning bu iqrorini tasdiqlashdan boshqa choramiz yo'q. Sh. Rahmon yana **qum** so'zini tuproqqa yonma-yon ishlatadi. Aslida u ham tuproq degani emasmi? Shoir borada boshqacha fikrlaydi:

*Ey, qum –
barmoqlarim oralaridan
zarra-zarra bo'lib to'zg'iyotgan qum.
Birlashsang na bo'lg'ay,
mushtdek toshga yo
tuproqqa aylansang bo'lmasmi bir zum.*

Bu erda **qum** – tarqoq, uyushmagan xalqning timsoli. Bu esa shoirning nodir topilmasidir. Qumni tuproq bo'lishga da'vat etayotgan shoir o'sha qumdek tarqoq xalqiga qarata birlash, bo'laklarga bo'linib tarqoq yashama, birlikda katta kuchga

aylanasan, degan da'vati bilan aslida sodda, bir-biriga qovushmaydigan, aksincha, ba'zida bir-birining tagiga suv quyib, halok qiladigan, g'aflatdagi xalqini uyg'otish istagi bilan yonmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tuproq timsolida shoir istibdod davrlarida o'z yerida toptalgan, ammo aslida, o'sha tuproqday buyuk bo'lgan o'zbeklarni aks ettirishga urinadi. Garchi bugun yotlar oyog'i ezg'ilayotgan bo'lsa ham ertaga mustaqillik suvi bilan poklanib, uning abadiy ERKka qaytishiga shoirning ishonchi baland'.

Kattaroq ochilsin barcha deraza,

shamollatish kerak

dunyoni bir oz. (-B: 296)

Dunyoni shamollatish, tozalashdan shoirga nima naf? Aslida dunyoning havosini dim qilgan, g'uborga to'ldirgan narsa nima? Bir qarashda shoir dunyo deganda, o'z ko'nglini nazarda tutib, uni turli illatlardan poklashni istayapti, degan o'yga borish ham mumkin. Biroq, biz Shavkat Rahmon o'zining tashvishlaridan ko'ra, xalqining dardiga kuyinishini yaxshi bilamiz. Aslida tozalanish kerak bo'lgan dunyo – bu uning erksiz yurti. Deraza esa bu yerda Istiqlol kirib kelishi mumkin bo'lgan yo'ldir. Sizning e'tiboringizni aynan **deraza** detaliga qaratmoqchimiz. Deraza shoirning nazdida qullikda yashab ham dod demaydigan, haqqini so'ramaydigan, “men ozod yashashga haqliman!” deb hayqirishga ojiz bo'lgan xalqning yumiqlik og'zidir. Bu og'izlarni huddi deraza kabi katta ochish kerak. Zero, uning ichidagi til dod desin kuchining boricha, so'rasin, erkin hayotni so'rasin, shunchaki so'rabgina qolmay, kurashib unga erishsin. Shundagina bu elning yomonlardan tozalanishiga yo'l ochiladi.

Shavkat Rahmon o'z ramziy timsol va obrazlarini, ayniqsa, she'rini “gapirtiradigan” detallarni tabiatdan oladi. U tabiatda nimagadir qodir bo'lgan biror narsani e'tibordan chetda qoldirmaydi. Shoir Istiqlol ruhidagi she'rlarida shamol va yomg'ir detallaridan mahorat bilan foydalanadi:

Endi erkim uchun rosa etildim,

*Ey, **shamol**, eng erkin qo'lingni bergin! (-B:326)*

yoki

Bir yomg'ir istarlar...

g'assol istarlar...

yuvib olmoq uchun qonli qo'llarni.

Shamol va yomg'irni she'riyatga olib kirish shunchaki peyzaj tasviri uchun emas, unga katta ramziy ifoda va mazmunni ortmoqlash uchun kerak. Masalan, shamol ko'plab badiiy asarlarda erkalik, telbalik, yo'lboshlovchilik, xabar etkazuvchi elchi sifatida gavdalandiriladi. Shavkat Rahmon uchun esa u – erkin hayot timsoli. Shamolning erkin parvozini hech nima to'solmasligini eslasak, shoir haq. Chunki shamol o'zi xohlagan vaqt va xohlagan makonda, o'zi istagan tezlikda uchib yuraveradi. Katta-katta o'rmonlar, daryolar, hatto osmondagi quyosh ham unga to'sqinlik qilolmaydi. Shoir erkin yashashga o'zimda kuch topdim deganda, ana shu shamoldan yordam so'raydi. Insonning ozodlikka ega bo'lishi, unga o'rganishi uchun ham uning ozod do'sti bo'lishi kerakligini anglaydi, huddi ozod shamollarday.

Yomg'ir esa bamisli g'assol, beminnat yuvuvchi, tozalovchi. Insoniyat uchun yomg'ir faqat qonli qo'llarni yuvish uchungina emas, qullikda o'tgan umrning og'riqlarini, begunoh o'liklarga to'lgan jang maydonlarini, eng avvalo, noumid va kir ko'ngillarni yuvib tashlash uchun ham kerak edi.

Shavkat Rahmon she'rlari orqali uning yurt taqdiriga mas'ullik, kelajak uchun qayg'urish, erkka tashnalik ruhini ancha dadil ovozda kuylaganini, ozodlik qo'shig'i shoir dilida hamisha jarang topib turganini anglaymiz:

Bu qo'shiq ajoyib qo'shiqdir,

So'zlari kuydirar tomoqni.

O'limni nazarga ilmaysan,

Sezmaysan surgun-u qamoqni.(-B:115)

Shoir bunda shunchaki bir qo'shiq haqida aytishdan yiroqda. Bu shunday qo'shiqki, so'zlari tomoqni kuydiradi, uni kuylar ekansiz, surgun, qamoq, umuman, berilajak jazolar tugul o'limni ham nazarga ilmaysan. Bu qo'shiqni bir umr kuylash uchun joningizni ham ayamaysiz. Ana shunday oliy qo'shiqdir – ozodlik qo'shig'i.

Qo'shiq detali asosiy mazmunni ifodalagan bir she'rni o'qiymiz:

*Necha ming yillarkim
hindu qizlari
tangrilar tug'ilgan hind tuprog'ida
bir qo'shiq aytadi,
ishonib faqat
qo'shiqlar dunyoni asramog'iga.*

Ha, ozodlik qo'shig'ini har kim kuylashni istaydi, u hindimi, xitoyi yoki o'zbek. Axir ozod yashashga hamma birdek haqli. Qo'shiq detali orqali istiqlolning ohangi va qadrini, u chindan ham dunyoni asray olishini uqtira olgani Shavkat Rahmonning detal qo'llash mahoratidan dalolatdir.

Tahlillarimizni davom ettirar ekanmiz, har bir she'rda alohida e'tibor bilan qo'llangan **tosh** detali diqqatimizni tortdi. Shavkat Rahmon she'riyatida tosh turli ifoda va ramziy ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bir yerda u yovlarga qarshi isyonning kichik ko'rinishi bo'lsa, boshqa bir yerda o'zbek xalqining metin irodasini ko'rsatib beradi. Eng muhimi, shoirning "tosh"i oddiy tosh emas, u gullaydigan tosh.

*Tosh ham gullarmi, deb
minglab kaltabin
gurzisin do'layib yig'ilgan paytda,
Mardona iljayib, ko'rasiz, dedim,
bir kuni gullaydi bu tosh, albatta.
Balki tosh hoziroq gullayotgandir...*

Qanchadan-qancha kaltabin odamlar, hukmron tuzum ko'p narsalarning gullashiga ishonsa ham toshning gullashiga ishonmasdi. Shuning uchun shoirning so'zlariga nopisand nigoh bilan qarardi. Biroq, shoir ta'kidlaganidek, bu tosh o'shandayoq gullay boshlagan – davlatimiz Istiqlolning ilk qadamlarini qo'ya boshlagandi.

Ma'lumki, Kurash va Ozodlik g'oyalarining amalga tadbiqu 80-yillarga kelib shoirlarimiz ijodiy prinsipining muhim qirralaridan biri edi. "Ularga bu borada

kuch bag'ishlab turgan asosiy omil Vatanning shonli o'tmishi edi, desak aslo yanglishmaymiz. Chunki ular qadim o'tmishimizga fikran qaytib, undan "oqqan daryo oqadi" naqliga amin bo'lib qaytdilar va shu ishonchni ommaga singdirish payida bo'ldilar.

Sh. Rahmonning 1980 yilda yozilgan bir she'rida "ming yillar qa'ridan kelayotgan" minora tasvirlanadi. To'plar o'qidan minoraning bosh qismi uchib ketgan, joni "sharqona bezaklar bitilgan jismida" omon qolgan va:

*Bu yil ham minorda, hayriyat,
sharqona bezaklar so'nmabdi.
Minorning boshiga bu yil ham
hayriyat, qarg'alar qo'nmabdi.*

She'ring mazkur xulosa bandi so'z san'atidan xabardor kishiga majozan kelajakka umidvorlikni anglatishini aytmasa ham bo'ladi. **Minora** hali o'zligini butkul yo'qotmagan millat, unga ezgulik ramzi bo'lgan laylaklar qo'ngani – ozod ertasidan bashorat. Eng muhimi, asos – "sharqona bezaklar bitilgan jismida" jonning omon qolgani."¹ Bu esa xalqning yorug' va nurli ertasiga ishonch bor deganidir.

Adabiyotimiz tarixidan ma'lumki, Shavkat Rahmon Istiqlol g'oyalarini, haqiqatni kuylash borasida aslo yolg'iz emasdi. 80-yillarda erkni madh etuvchi shoirlar bayrog'i baland ko'tarilib ulgurgan edi. Sh. Rahmon boshqalardan farqli o'laroq, o'z isyonlarini ramziy timsollar, obrazlar va albatta, o'zida g'oyaviy mazmunni tashuvchi badiiy detallar yordamida aks ettirdi. "Shoir yurt xoinlariga tarixiy shaxs Mahmud Torobiy tilidan shunday deydi:

*Jonim — jigarimsan,
sen-da odamsan,
loaqal ko'zingda bir yosh ko'rsaydim,
loaqal qovushib qolgan qo'lingda
yovlarga atalgan bir tosh ko'rsaydim.*

¹ Хамдамов У. Янги ўзбек шеърляти.-Т.:Адиб, 2012. 181-бет.

*...Seni alqadilar
kiftingga qoqlab,
maqtovlar yog'ildi oqqush pariday.
Men esa yig'ladim ena-yerimning
toptalgan qorong'i og'ushlarida...(1983)"*

Aynan “ena-yer”ning toptalgan og’ushi shoirni iztirobga soldi. E’tibor bering, go’dak ham “ena”, “ona” deb yig’laydi. Bu detalni qo’llash orqali shoir insonning ona – azizligi, unga qiyoslangan aziz tushunchalarni ham asrash kerakligi haqidagi hech qachon yetolmaydigan ichki sezimlariga tegib o’tadi. Axir yurt xoinini ham shu yurt onasi dunyoga keltirgan-ku!

*“Ko’zingizni oching, qo’rqmang,
ziyodan qamashsin, og’risin, mayli,
mayliga yashamak bo’lsin qiyinroq
ochiqligi tufayli,*

-deb yozadi endi-endi katta turmushga kirib kelayotgan 24 yoshli shoir. Va u umrning oxirigacha ana shunday– haqiqatni aytib, unga intilib, ochiq ko’zlar bilan yashash o’gitiga sodiq qoldi. Va mana shu ochiq ko’zlar – haqiqatni ko’rishga bo’lgan betiyiq ehtiyoj shoirga ko’rsatdiki, u yashayotgan mamlakat azim bir yolg’onning changalida qolgan, atrofdada esa vabo, bo’hton va hirsga mukkasidan ketgan odamlar to’lib-toshgan ekan... Shunda ochiq ko’zlar yana bir narsani g’irashira ilg’adi: shoir mansub bo’lgan millat asoratda, yurt – Vatan istilo qilingan edi. 1980 yilda yozilgan bir she’rida Shavkat Rahmonning yillar qa’ridan toshbo’ron va qirg’inlarga yo’liqib kelayotgan minora qismatidan hikoya qiladi. Aytadiki, to’plar o’qidan minoraning bosh qismi uchib ketgan bo’lsada, joni sharqona bezaklar bitilgan ismida omon qolgan hamda har yili unga laylaklar in quradi.

Adabiyotdan, umuman, san’atdan ozgina xabari bor kishi borki, ushbu she’r majoziy bo’lib, u o’z tagqatlamlarida o’zga ma’nolarni ham yashirib turganini ortiqcha qiyinchiliksiz tushuna oladi. Ta’bir joiz bo’lsa, she’rda aks etgan **minorani** xalq, uning so’nmagan sharqona bezaklarini hali yo’qotilmagan millat qiyofasi, qarg’alarning minora boshiga qo’nmaganligini ozod kelajakka bo’lgan

umidning ramzi o'laroq qabul qilsa ham bo'ladi. Bunday ramziy she'rni bugun – 2000 yilda yozish va uni talqin etish shoirdan ham, munaqqiddan ham ortiqcha qahramonlikni talab qilmaydi. Biroq qariyb 20 yil avval – 1980 yilda, ya'ni imperiya ayni kuchga to'lgan mahalda yozish va undan-da muhimrog'i, she'rda aks etgan ma'noni anglash darajasiga ko'tarilish oson ish emasligini tan olish insofdandir. Bu kabi dalillar shuni isbot qiladiki, xalqimiz 1991 yil 1 sentyabrda rasman qo'lga kiritgan muqaddas istiqlol uchun haqiqiy kurash aslida ancha oldin – asr avvalidan boshlangan bo'lib, 70- va ayniqsa, 80-yillarga kelganda adabiyot misolida o'zining yangi bosqichiga ko'tarilgan edi. Shavkat Rahmon shu jarayonning ko'zga ko'ringan eng iste'dodli vakillaridan biri bo'lib maydonga tushdi va umrining oxirigacha ana shu missiyasini matonat bilan ado etdi.”¹ Anglashilib turibdiki, Istiqlol g'oyasi tom ma'noda haqiqatga erishuvi negizida tug'ilgan va shakllangan. Shavkat Rahmonda istiqlol qayg'usi haqiqat tomon eltuvchi yo'lning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ldi. Shoirning mustaqillikni sog'inib yashagani va buni o'z she'rlarida, 70-80 yillardayoq ayta olgani, eng muhimi, kurashchan shoirning kurashchan she'riyati o'sha davrlarda jasorat bilan ozodlikni kuylagani o'shanda ham, bugun ham adabiy jamoatchilikning e'tirofidan tushmay kelinadi, ibrat sifatida ko'rsatilaveradi. Shavkat Rahmonning qaysi bir she'rini olib qaramang, Vatanni sevish, uning har bir go'shasi, tuprog'ini ulug'lashga, e'zozlashga, qadrlashga bo'lgan o'lmas ruh va kayfiyat haroratining ufurib turishi chindan ham ibratga arzigulikdir.

“Shoir ilk she'rlarini ne-ne umid va mulohazalar bilan e'lon qilishga jur'at etgan yillarda «turg'unlik» davri ayni avjida edi. Bu yillarda jamiyatda ma'lum sokinlik, osoyishtalik hukm surganiga qaramay, ishlab chiqarishning hamma sohalarida «qo'shib yozishlar», xalq mulkini xufyona o'marish, poraxo'rlik, qalloblik singari ko'plab illatlar bolalay boshlagan edi. Keyinchalik tuzumning inqirozi va halokatiga sabab bo'lgan bunday illatlar haqida rasman gapirish yoki yozish mumkin emasdi. Ammo «oyni etak bilan yopib bo'lmaydi» deganlaridek, ularni xalq yaqqol ko'rib, bilib turardi. Ommaning ma'lum qatlamlarida, ayniqsa,

¹ У. Ҳамдам. Шоир - “гузалмас” ҳақиқатпараст. //http: kh-davron.uz сайти.

fidoyi ziyolilar orasida tuzum tug'dirayotgan qabohatlardan norozilik mavjud bo'lsa-da, ular qalqib yuzaga chiqa olmasdi. To'g'ri gapni aytishga jur'at etganlar ta'qibga uchrab, soxta madhiyabozlik har jihatdan rag'batlantirilayotgan bunday sharoitda ijod qilish qiyin edi. Lekin, shunga qaramay, jamiyatdagilarni tanqid qiluvchi asarlar ham yozilib turardi. Shuningdek, tuzumning o'tkinchiligini, kelajakda xalqimizning manglayiga yorug' kunlar bitajagi haqidagi umid-orzularni goh ramzlar, goh imo-ishoralar tarzida she'rlar, satrlar bag'riga singdirib yuborishga urinuvchi ijodkorlar ham bor edi. She'riyat olamiga o'tgan asrning 70-yillari oxiri, 80-yillari boshida kirib kelgan o'nlab navqiron shoirlar ijodida yurt taqdiriga mas'ullik, kelajak uchun qayg'urish, erkinlik ruhi ancha dadil ovozda kuylanganini ko'ramiz. Bu tuyg'ular, ayniqsa, 1985 yilda keng quloch yoygan oshkoralik davridan boshlab kuchaydi va shiddatli to'lqinga aylana bordi. Shavkat Rahmon mana shu ulkan oqimning faol ishtirokchilaridan biri edi. Bu yillarda uning ovozi chinakam ma'noda jangovarlik, kurashchanlik kasb etdi. U ham barcha halol yurakli, pok niyatli insonparvar ijodkorlar kabi rangin orzular ichida yashadi, o'z xalqini, Vatanini ozod, baxtiyor, erkin ko'rishni istadi, bu ezgu armonlariga erishish uchun o'zini safarbar jangchi deb hisobladi. Tutqunlik girdobiga tushib qolgan, mustamlakachilar va mahalliy yugurdak amaldorlar tomonidan talanayotgan olomon qismatiga madad berishni, unga asl haqiqatni yetkazishni diliga tugdi. Ammo bu og'ir vazifa edi. Razolatga qarshi kurashish, temir qafaslarni sindirish uchun zamondoshlarning ko'zini ochish, ruhini ko'tarish zarur ediki, buni osonlikcha bajarib bo'lmasdi. Shoir 1972 yilda e'lon qilgan ilk she'rlaridayoq ramzlar tiliga katta e'tibor berib, o'zi yashayotgan muhit, o'zi his qilayotgan haqiqatlarga obrazli munosabat bildirishga, obrazli mushohada yuritishga, detallarni so'zlatishga intiladi. Masalan, «Shimol kuni» she'rida «Qovjiragan kuz tepasida aylanadi qora qarg'alar» misralari bor. Xalq qora qarg'alar timsolida yovuzlik kuchlarini ifodalab kelgan. Shoirning ta'kidlashicha, ular shunchalik ko'pki, hatto quyosh yuzini to'sib qo'yishga ham qodir.

To'lib ketdi qarg'aga osmon,

Hatto arang ko'rinadi nur.

Shoir nimaga shama qilayotgani aniq: qora qarg'alar javlon urayotgan – hukm surayotgan saltanatda nur yo'li berkiladi, haqiqat va adolat yo'qoladi. Buni anglab yetgan va zulmat kuchlariga qarshi turishdan, razolatning oldini olishdan ojiz kuychining holati, qiyofasi tabiiy chizgilarda namoyon bo'la boradi. Ularda biz nochor qolsa-da, tiz cho'kmagan, irodasi bukilmagan, mard, bardoshli inson timsolini ko'ramiz. Shoir qator she'rlarida o'z isyonkor yuragini, o'z xarakterini suratlantiradi. Bu yurak illatlarga murosasiz, nohaqlikni, adolatsizlikni ko'rganda tinchini yo'qotadi, loqaydlikni, turg'unlikni hazm qilolmaydi. U goh qafasdagi bulbulga (bu yerda ham kuchli majoz bor, hatto bulbul ham qafasda!), goh vahshiy yo'lbarsga o'xshaydi, o'zini qo'yishga joy topolmaydi. Mana, uning shoir talqinidagi o'zini temir qafaslarga urib nochor to'lg'anishlari:

Ko'zlaring qurigan o'zanlar kabi,

Mushtlaring og'riydi cho'ntaklaringda.

Kengliklarni qo'msagan shoir yuragim

Shoqolday uvladi bu kengliklarda.

Shunda aylanasan sirli halqada

Qafasda quturgan yo'lbars kabi jim.

Shoirning cheksiz, kanorasiz dard va nafratlaridan rang olgan bu chizgilarda uning o'jar fe'l-atvori, kurashchan ruhi, jo'mard tabiati yaqqol namoyon bo'ladi. She'rning boshqa bandlarini o'qimasdan turib ham gap nima haqida ketayotganini va shoir naqadar kuchli iztirob, alam ichida yashaganini bemalol ilg'ash mumkin. Bu misralar Shavkat Rahmon ijodida, ruhiyatida tinimsiz o'zgarib, rivojlanib turgan tadrijiy holatni ham yaqqol ko'rsatadi. O'z tuyg'ularini, kechinmalarini, mardona gaplarini ochiq ayta olmagan shoir bu vazifani tabiat manzaralari, hodisalariga, fasllarga yuklaydi. Masalan, u «Hamal» she'rida chiroyli shoirona tashbehtar yaratadi. Oppoq bo'lib gullagan o'riklarga qarar ekan, «*Oq bulutlar yerga qo'ndimi? Mo'jizalar bo'ldimi sodir?*» deb tajohili orifona usulida savollar beradi. Ana shu tasvir ipidan ushlab olib, yana yangi tashbehtar kashf etadi, fikrni, manzarani chuqurlashtiradi: «*Oh, naqadar ajoyib tunda oq mash'ala ekilgan vodi*». **Oq**

mash'ala timsolida ham teran mazmun bor. U o'quvchini beixtiyor fikrga chorlaydi, yorug' xayollarga etaklaydi. So'ng daraxtlar ham, bahor ham evrilib, insoniy qiyofaga kira boshlaydi. Ular uyg'onadilar. Oq mash'alalar ko'tarib, vodiy uzra kezib yuradilar. Shoir dilidagi hayotbaxsh, porloq orzularini ehtiyotkorlik bilan qog'ozga tushiradi: axir u xalqini sokin uyg'onishini, o'z haqqi-huquqi uchun oyoqqa qalqishini juda xohlaydi-ku! Shoir mana shu timsol bilan she'rni tugatishi mumkin edi, lekin unda asl muddao to'la ochilmay qolardi. Asosiy fikr esa mana bu yerda:

*Endi safsar kechalarda oq,
mash'alalar tutib, ulug'vor
kengliklarda kezar chiroyli
kunduzlarni axtarib bahor.*

Koinotda fasllar tinimsiz almashinib turibdi. Kecha va kunduz muttasil o'z muddatida kelayapti. Bu – azaliy tabiat qonuni. Shoir esa unga basma-bas fikr yuritmoqda. Sababi, hayotda shoir orzu qilgan, ko'rishni istagan kunduzning o'zi yo'q. Avvalo, uni reallikka olib kelish kerak. Bahor shuning uchun kunduzlarni qidirib yuradi! Shoirning ko'z o'ngidagi odamlar, jumladan o'zi ham hali bu ishni amalga oshirishga qodir emas. Bahor, oq mash'ala detallariga urg'u berilishining sababi ham shunda. Shoir chinakam kunduzlar bir kuni kelishiga qattiq ishonadi. («Tobora yaqindir jasorat oni»). Shuning uchun u ko'hna yerning bag'riga «o'lmas g'oyalarning urug'larini» tinmay sepadi. Hali tutqunlik, qullik iskanjasidagi odamlar uyg'onishi, o'z asliga qaytishi kerak. «*Ostonangdan ketmaydi bahor sen aslingga qaytmaguncha to*». (Abdulla Oripovning «Sen bahorni sog'inmading-mi?» xitobini eslang).

Umuman, tabiat manzaralari va detallari vositasida davrdan norozilikni ramziy ifodalash usulini jahondagi barcha ulug' shoirlar ijodida ko'rish mumkin. O'zbek mumtoz adabiyotida buning ajoyib namunalari mavjud. Ayniqsa, Cho'lpon she'riyatida bu an'ana yuksak mahorat bilan baland bir cho'qqiga olib chiqilgan.

Shavkat Rahmon mazkur tajribalarga qattiq suyanadi va uni o'ziga xos tarzda muvaffaqiyatli davom ettiradi. Uning she'rlarida jamiyatda hukm surayotgan

tengsizlik, adolatsizliklarni ko'rib, odamlargina emas, «jinni tollar» yig'laydilar, «zangor vodiidan» ularning «ko'z yoshlari bir daryo bo'lib» oqadi. «Oq sochli», «nuroniy tog'» ham chiday olmaydi, u ham o'ksib ko'z yosh to'kadi. Uning atrofida «qachonlardir yurtim deb o'lgan pahlavonlar yotgan qabrlar» son-sanoqsiz. Hozir esa «jimlik bosgan vohada beg'am uxlari botirlar uzoq». Ular qachon uyg'onadilar? «Nima bo'lgan ularga axir?» deb bezovta savolga tutadi shoir. Botirlar jim. El-yurt og'ir sukutda. Ammo tog'lar, daraxtlar uyg'oq. Ular o'z noroziliklarini ochiq bildiradi oladilar. Faqat ularni tinglamoq va anglamoq zarur:

Ana... quloq soling...

eshityapsizmi,

Kuylar shoir shamol, kuylar shoir qor,

shoir qorong'ilik, shoir tog'larda

shoir daryolarning shovullashi bor.

Bular esa oddiy shovullashlar emas. Tabiat hodisalari mana shu tarzda shoir ochiq ayta olmagan fikrlar, kechinmalarni so'zlaydilar. Hatto shoir talqinida qafasdagi qush ham o'z dardini emas, o'zgalar (ya'ni odamlar) dardini aytib yig'laydi.

“Ayni zamonda Shavkat Rahmon g'amlar girdobida o'ralib qolgan yig'loqi, badbin shoir emas. U garchi hozir dil armonlarini kuylay olmayotgan bo'lsa ham («Kuylovladim yaproqlar kabi, quruq shoxday titrar ovozim...») kelajakka katta umid, ishonch bilan qaraydi. Ilk she'rlaridagi hazin tuyg'ular sekin-asta jiddiy fikrlar bilan almashina boradi. Ammo bu jarayon osonlik bilan emas, qarama-qarshi tuyg'ular, ziddiyatlarning og'ir kurashi tarzida ro'y beradi. U yuraklarga sepgan o'lmas g'oyalarning unib chiqib, kutilgan hosil berishiga hali ancha vaqt bor. Haqiqat izlayotgan shoir adoqsiz o'ylarga beriladi, iztirob chekadi, hasratli savollar oldida lol qoladi:

Men sevgan daryolar shundoq qolurmi,

meni o'ylatgan yo'l qolurmi shundoq?

Men suyangan tog'lar shundoq qolurmi,

shundoq qolurmikin yuraklarda dog'?

Yoki:

*Nahot, bekor o'tdi gulday umrimning
ming yilga tatirlik oltin chog'lari,
nahot biror dilni
uyg'otolmadi
Shoir yuragimning qalldiroqlari?!*

Bu parchadagi savollar, xitoblar dardli bo'lsa-da, majruh ko'ngilning ojiz faryodlari sifatida eshitilmaydi. Ularda qat'iyat bor. Armon, umid, ishonch qorishib, omuxta bo'lib ketgan bu hassos misralarda. Bo'lajak uchqunning tafti sezilib turadi. Shoir dil dardlarini, jarohatlarini bayon etar ekan, Cho'lponning otashin she'rlariga monand misralar tizishga erishadi:

*Otim o'lgan, qilichim singan,
majaqlangan sovut, qalqonim.
Kim tashladi meni bu chohga,
Qayda qoldi yorug' osmonim?!*

Adolatsizliklarni, xo'rliklarni ko'raverib qiynalib ketgan, tinimsiz yo'l izlab, hech qayerdan najot topa olmayotgan ma'naviy yetuk zamondoshlarimizning dil izhori sifatida jaranglaydi bu keskin misralar."¹ Satrlardagi **qilich, qalqon, sovut va ot** detallariga e'tibor bering. Bu jangchining do'stlari. Jangchining esa kurashmaslikka haqqi yo'q.

Shavkat Rahmonning 80-yillardagi she'rlarida karaxtlik, g'aflat uyqusiga botgan yurt qiyofasining turli-tuman manzaralari shafqatsiz haqqoniyat bilan chizila boshlaydi. Shoir dilidagi og'ir kishanlarning qulflarini sekin-asta ocha boradi.

Shoirning shikasta dili o'zi tushib qolgan sharoitga, muhitga mardona baho bera oladi:

*Judo bo'lding tariqatingdan,
endi tinchib qafasda o'ltir.*

¹ Мустақиллик даври адабиёти. Абдуллаев Ортиқбой. Ўткир сўз қолмаса, ҳеч нарса қолмас. –Т.: Фафур Ғулом, 2006. 216-бет.

Nima gap o'zi? Shoir ko'nikishga, taqdirga tan berib, shukur qilib yashashga chorlayaptimi? Yo'q, aslo! Shoirning o'jar yuragi qattiq depsib, urib turibdi. Xalqimizning ish yurishmay qolganda, alam bilan qasdma-qasdiga aytiladigan «O'l, bu kuningdan battar bo'l!» degan achchiq kinoyasi bor. Shoir huddi shu tarzda fikrlaydi. O'zligidan judo bo'lgan o'ziga (ayni zamonda tilsiz, zabonsiz tutqun olomonga) oyna orqali razm soladi, uning qafasga qamalgan quldan farqi yo'qligini ochiq aytadi. Axir shu yillarda yurt boshiga tushgan sanoqsiz kulfatlar uchun aslida o'zimizning tobelikka moyil tabiatimiz, o'ta ishonuvchanligimiz, «o'ziga bek»ligimiz sabab bo'lgan emasmi? Ana shu odamlar aslida tabiatan shunday yaratilgan emas, ular zo'ravonlik bilan achchiq qismatga giriftor etilgandir. Ularning gardanini mustamlaka kishanlari ezib tashlagan. Shoir bu haqda dard bilan, o'ta og'riqli misralarda gapiradi. Uning bo'g'iq satrlari orasidan achchiq haqiqat mo'ltirab, mo'ralab turadi:

*Jismimiz o'ragan
tikonli simlar,
tikonli fikrlar ichra ruhimiz,
nigohimiz kalta, nursiz zindonlar –
yuraklarda chirir
g'am-anduhimiz.*

Bu she'r 1983 yilda yozilgan. Hali istibdod kishanlari mustahkam turgan sharoitda qul ekanligimizni, xalqning asl farzandlari nursiz zindonlarda chiriyotganini dangal aytish katta jasorat edi.

Shoir ana shu tarzda yuragidagi dardlarini ham, mahzun yurt qiyofasini ham, uni kalamushday kemirib yotgan nopok amaldor, to'ralar timsolini ham she'rlarida keng tasvirlashga kirishadi. Bu yo'lda u tinimsiz turli vositalar, obrazlar, suratlar, detallar izlaydi. Ramzlar bilangina emas, oshkora, ro'y-rost gapira boshlaydi. Jangovar ruh, otashin publitsistik ko'tarinkilik shoir she'rlarida baralla jaranglaydi. U «o'z zotin, o'z otin unutganlarni, qadimiy buloqlar ko'zini ko'mib, azim daryolarni quritganlarni» shafqatsiz fosh etadi. «Ko'pincha benomus kimsalar sabab haqiqat

deganlar qoldi qamalda» deb bong uradi. Ammo kurashchan ruh uchun shuning o'zi kifoya emas:

*Shu xokisor yer
farqlar yaxshi, yomon – barini.
Tanib olar bir kuni baribir
o'zin asl jallodlarini,*

-deb qat'iyat bilan e'lon qiladi. Shoirda shu ishonch ustivor bo'lsa-da, biroq bu oson kechmasligini yaxshi his qiladi. Shuning uchun u **jallod** detalining nihoyatda hayotiy va o'zbek turmushiga naqadar mos keladigan ziddini kashf etadi:

*Azaliy qadrim deb yig'lasam agar,
Ko'zimning yoshini artar jallodim.*

Kutilmagan muqoyasani qarang. Axir xalqimiz uzoq yillar ayni shu holatda aldanib, xo'rlanib, tuzoqdan chiqolmay keldi-ku! Lekin bugun bunday o'yinlarning, nayranglarning vaqti o'tdi. Ko'r ham xassasini bir marta yo'qotadi, deganlaridek, millionlab ko'zlar yarq etib ochildi. Nihoyat, boshqacha qo'shiqlar zamoni – Mustaqillik keldi:

*Surilar bu temir pardalar,
istibdodning tug'lari qular,
mog'or bosgan qora qa'rida
million ozod ruhlilar kular.*

Ko'zi ochilgan bu «million ozod ruhli» insonlar, eng avvalo, Vatan, millat taqdiri, milliy boyliklarimiz, qadriyatlarimiz haqida, tabiatni asrash haqida baralla gapira boshladilar. Endi boshqacha yashamoq kerak. Bugungi majruh Vatanni «asl Vatan bo'lmog'i uchun» «ovozi toshlarni yorar kuychilar», ya'ni kurashga chorlovchilar, chaqinlar ichra yashovchilar kerak. Faqat mardlargina, botirlargina Vatanni ozod kengliklarga olib chiqa oladi. Butun tarix aslida ana shunday shiddatli kurashlar ichida kechgan. Uning shafqatsiz qutblari, ziddiyatlari bor.

Shoir adolat yo'lini, jo'mardlik yo'lini tanlar ekan, unga pokiza yurak, toza tuyg'ular bilan kirishni xohlaydi. «*Lahzada titroqqa aylanib tursang, demakki, ichingda bitta xoin bor*» deb hisoblaydi u. Eng avvalo, ana shu ichingdagi xoinni–

qo'rquvni, xiyonatni yo'qotish kerak. «O'ldir, ichingdagi xoinni o'ldir!» deb xitob qiladi shoir.

Ana shunday pokizalikka, yuksak e'tiqodga erisha olgan, har jihatdan poklangan odamgina birovning koriga yaraydi. Do'stlarni tuhmatlardan saqlashga, Vatanni zulmatdan qutqarishga qodir kuch va jasorat topa oladi.

To'g'ri, sobiq jamiyatda oshkoralik boshlangan davrda – 1985 yildan keyin shoirlar ijodida shiddatkorlik, jangovar ruh kuchaydi. Turg'unlik iskanjasida deysinib qolgan tuzumga xos illatlar jangovar she'rlar, o'tkir publitsistik maqolalarda keskin tanqid qilinadigan bo'ldi. Davr bilan hamqadam yurish ijodkorning ulkan fazilati sanaladi, albatta. Shavkat Rahmon esa shu ma'noda zamonadan ancha ilgari ketgan edi. Uning ijoddagi o'ziga xosligi shunda namoyon bo'ladiki, u bo'lajak Mustaqillik, Istiqlol onlarini qalban teran his qilib, dadil fikrlarni ancha ilgari kuylay boshlagan edi. Xalqni jasoratlarga, o'zligini anglashga kuyib-yonib chorlagan edi. Buni shoirning fuqarolik jasorati, fidoyiligi deb, she'riyatimiz rivojida katta xizmati, deb e'tirof etish lozim. Shoirdan bugun chinakamigat o'tkir, jangovar so'zlar yodgorlik bo'lib qoldi. Ular hali uzoq vaqtlargacha xalqimiz dilida aks-sado beradi, uni jasoratga, ne mashaqqatlar bilan qo'lga kiritilgan Ozodlikni mardona saqlashga chorlaydi”.¹

Shoir Istiqlol qiyofasini, unga erishish yo'llarini kuylar yana va yana obraz darajasiga ko'tarilgan detallarga yuzlanadi. Shavkat Rahmon “Tutzor xotiralari” she'rida hurlik falsafasini **tut** daraxti va uning taqdiri orqali ifodalaydi. “Shoir nazarida kallaklangan tutlar o'zlarining mayishgan badanlari bilan butun bir osmonni ko'tarib turganday. Shoir ularni bir qarashda mahzun qullarga o'xshatsa, yana bir qarashda turkiy shevali pahlavonlarga qiyos qiladi. Havasning zo'ridan lirik qahramon o'zini tutlarday his qilishni xohlab qoladi. Tutning dastlabki hayratlari quyidagicha:

...Voh yer tagidayam bobolar erdir.

Shu lahza tig' misol ildizlarimga

kaftlarini tirab, tasalli berdi,

ko'zingni uzma deb yulduzlaringdan.

¹ Назаров Б. Истиқлол даври ўзбек шеърятининг манзаралари./ Мустақиллик даври адабиёти. –Т., 2006. 41-бет

Yulduzlarga talpinib, yulduzlar qadar yuksalayotgan tutni tez-tez kallaklab turishadi. Lekin bu bilan u isyondan qaytmaydi, aksincha, erksizlikka qarshi mushtini tobora mahkamroq tugib boradi. Isyonkor tutlar o'sishdan to'xtasa ham fojia yuz bermaydi. Endi ular erkini qirqayotganlar uchun gurziga aylanadi. Aslida uning muqaddas vazifasi ham shu edi-da..."¹

Bir so'z bilan aytganda, "Shoir mutelik bilan, istibdod bilan murosaga kela olmaydi, egilgan boshlar uning nafratini qo'zg'atadi:

*Yurtimni kezaman,
endi har narsa –
egilgan narsalar tegar g'ashimga.
Endi ishlash kerak bu kengliklarda,
Tokim so'ylamasin yolg'onni hech kim,
Tokim buyuk tog'lar saltanatida
Egilgan boshlarni qilichlar kessin.*

Parchadagi **"egilgan bosh"** detali e'tiboringizni tortadi. Nega aynan egilgan bosh. Sababi boshning egikligi – qullikning katta belgisi. Shu bois ham har qanday qullik, garchi u birgina bosh egish bo'lsa ham, uning g'azabini keltirmay, nafratini qo'zg'atmay qo'ymaydi. Shoirning g'oyaviy maqsadini ochib berishda ushbu badiiy detal alohida xizmat qilgan.

Shavkat Rahmon qator ijtimoiy mavzularni ham shiddat bilan kuyladi. Biroq "Shoirni iztirobga solgan ham erk, uni bulbul qilib sayratgan ham erk, toshlarida gul undirishga qodir kuch ham erk, tilining uchida asrab-avaylagani ham erk" bo'lgani uchun ham "Shavkat Rahmon inson zotining hurlikka bo'lgan ehtiyoji naqadar buyukligini butun vujudi bilan his qiladi."²

Shu o'rinda Shavkat Rahmon she'riyatini tadqiq qilgan olimlardan biri Otajon Norov mulohazalari ham biz tahlil qilishga urinayotgan mavzuga mos keladi: "Shavkat Rahmon she'riyatida sobiq ittifoq davri mafkurasining ta'sirini uchratmaganman. «Xirgoyi» deb nomlangan she'ri ham o'sha turg'unlik davrlarida yozilganligi hech kimga sir emas:

¹ Раҳимов Аъзам. Эрк-у мухаббатнинг мухтор элчиси. / Шавкат Раҳмонни хотирлаб. –Т.: Шарқ, 2012. 144-bet.

² Солижонов Й. Ҳозирги ўзбек лирикаси. Ўқув-услубий қўлланма. ФДУ, 2009. 20-bet.

*Necha ming alloma jo'mardlar o'lgan,
tafakkur sasigan,
ruhlari so'lgan,
urug'lar aynigan tap-taqir cho'lda
o'zbekim davlatin qursak maylimu?*

-degan og'riqli savoli bilan yuraklarni junbushga keltiradi, dahshatli titroq soladi. Shu emasmi haqiqiy she'riyat? Shoir she'rlarida shavkatona musiqiylik bor, ohang bor. Buni boshqacha xirgoyi qilish aslo mumkin emas. Qanday tug'ilsa, shundayligicha qabul qilish lozim. Bilasiz, aynan Sobiq Ittifoq davri mafkurasi butun bir millat ziyolilarini aldab, mag'zi puch, kelajagi yo'q g'oyalar bilan miyalarini zaharlab, shu «yo'l» orqaligina o'z ta'sirini o'tkazib kelingan. O'sha paytda bunga ishonishgan. Lekin buning ertangi kunimizda hech qanday samara bermasligini tushunib, anglab yetgan shoirlar – millat vijdonlari ham bisyor edi. Ularning nomi «yon daftar»da yoki bo'lmas «qora ro'yxat»da turar edi. Bu safda Shavkat Rahmon ham bor edi. Uning qalbidagi iztirob millatniki, millatning iztirobi uniki edi.

Shavkat Rahmon qator erksevar zotlar qatorida “xalqni yupatish, og'irini yengil qilish, qalb-u yuragiga taskin berishni o'ylardi. O'z asarlarida buni yozishni maqsadining eng oliysi deb bildi. Tuzumning shafqatsiz tutimlari badiiy ijodni ham qattiq nazorat ostiga olgandi. Shavkat Rahmon esa bunday og'ir bir paytda ham «so'z»ini jasorat bilan aytishni o'z burchi, deb bildi: *«El qirildi turkiy o'lkada, er qolmadi – keldi ajali, kim qoniga botdi yo'lakda, kim g'ajildi namoz mahali»* kabi olov satrlarini bitdi.”¹ Bunday ayta olish, bunday kuylash shoirga oson bo'lmagan, albatta. Har bir isyonkor satr uning bo'yniga bolta bo'lib urilishi mumkin bo'lgan og'ir pallada ham neki aytsa, rost aytdi, jasorat bilan aytdi.

Shavkat Rahmon qalbidagi Vatanga, Ozodlikka cheksiz muhabbat tuyg'usining shaxs hayotidan ham ustunligini internet saytidan olingan ushbu xotiralar ham dalillaydi:

¹ Отажонов Норов “Уйғоқ виждон куйчиси”//<http://kh-davron.uz> сайти.

«1996 yilning mart oyida Rossiya Davlat Dumasi sobiq Ittifoqni amalda tiklash to'g'risida bema'ni qaror qabul qildi. Respublikamiz aholisi o'tish davri qiyinchiliklariga qaramasdan Duma qaroriga keskin norozilik bildirdi. Asablar tarang tortilib, chatnab turgan o'sha kunlari biz poytaxtimizdagi "Alpomish" sport saroyi orqasida joylashgan kasalxonaga Shavkat Rahmonni yo'qlab bordik. Shavkat aka anchadan beri betob edi; u hiyla o'zini oldirib qo'ygan bo'lsa-da, lekin ruhan bardam edi. Xonada kelinoyimiz Manzura opa Shavkat aka bilan bir nimalar to'g'risida gaplashib o'tirardi. Hol-ahvol so'raganimizdan so'ng:

– Dumaning qarorini eshitdinglarmi? – deb so'radi Shavkat aka.

– Eshitdik.

– Hozir Manzura opangiz bilan shu haqda gaplashib o'tirgandik... – Shavkat aka shiftga qarab birpas jim qoldi. So'ng, fikrini jamlab oldi, shekilli, yana gap boshladi: – Agar mustaqillikni qurol bilan himoya kilish zarur bo'lsa, men ko'ngilli bo'lib jangga jo'nayman... O'g'lim ham boradi... Sizlar ham borasizlar... Hamma borishi kerak...

– Albatta, – dedik.

– Bir yuz-u o'ttiz yildan so'ng qo'lga kiritilgan mustaqilligimizni osonlikcha berib qo'ymaymiz, – dedi Shavkat aka mushtlarini tugib. – Mayda-chuyda gaplarni bir chetga yig'ishtirib qo'yish kerak. Asosiysi – mustaqillik... Uni qo'ldan bermaymiz..."¹ Shavkat Rahmon erk uchun kurashni nainki kuylashga va albatta, amalda ko'rsatishga ham qodir inson edi.

Bular shunchaki tantanavor, dabdabali so'zlar emas, e'tiqodiga xiyonat qilmasdan mard yashagan shoirning, bukilmas ozod ruhning qasamyodidir. Ana shu mardona ruh shoirning, ayniqsa, keyingi yillardagi she'rlarida juda kuchli avj pardalarda namoyon bo'ladi. U «Shavkat Rahmon degan bir o'jar shoir» nomidan gapirar ekan, o'z hayotining ma'nosini Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik kabi so'zlardan topganini va ular uchun umrini baxshida etishdan baxtiyorligini shodon kuylaydi. Bunday jangovar misralar, sayqallangan obrazlar vijdonimizni sergaklantiradi, mas'uliyat uyg'otadi, ruhimiz iqlimlariga toza havo olib kiradi.

¹ http://ziyonet.uz/ru/people/shavkat-rahmon_uzc сайти.

Bugungi kunda mustaqillikka erishgan va o'z erkini, ozodligini hamma narsadan ustun qo'yib yashayotgan zamondoshlarimizning erkin o'ylari, jangovar, yaratuvchan ruhi Shavkat Rahmon she'rlarida yangrab turgandek bo'ladi. Ko'ramizki, «baxt so'zini hammadan keyin» aytishni niyat qilgan bu «o'jar shoir» xalq tilining, dilining ifodachilaridan biriga ayladi. Chinakamiga xalqning dardi, alamlari, baxtini kuylovchi shoir darajasiga ko'tarildi. U bosib o'tgan yo'l og'ir, mardona yo'ldir. Chinakam kurashlar, azob, iztiroblar yo'lidir.”¹ Shunday bo'lsa-da, Shavkat Rahmonning o'jar va o'z o'rnida qat'iyatli yuragi hech nimani pisand etmadi, kurashlar yo'lida yurishda davom etdi. Shoir she'rlarida Istiqlol mavzusini yorituvchi yana ko'plab detallarga boy namunalarni hali uzoq keltirish mumkin. Zero, Shavkat Rahmon – erkning tolmas kuychisi. Shoirning erkka tashna yuragidan to'kilgan she'rlar ko'plab tadqiqot ishlariga ob'yekt bo'lishi muqarrar.

Bobning xulosasi shuki, har qanday obraz shunchaki yaralib qolmaydi, detallardan o'sib chiqadi. Shavkat Rahmon she'riyatining badiiy obrazlari sanalgan tosh, quyosh, tun, bo'ri, it, oy, irmoq, daryo, qush, qolaversa, vaqt, armon kabilar alohida o'rin tutadi. Fikrimizni it obrazi orqali ham dalillashimiz mumkin. It avvaliga shoirning nazdida xoinning fe'lini ochib beruvchi detal edi, keyingi yaralgan she'rlarda uning o'zbek, do'st, millat, nafs quli kabi ma'no qirralari kashf etilib, yaxlit obrazga aylantirilgan.

2-bobning 2-faslida “Shavkat Rahmon she'riyatida badiiy detal” mavzusining ochilishiga xizmat qiladigan eng muhim fikrlar jamlangan. Chunki birgina Istiqlol mavzusi o'zida eng ko'p yordamchi – badiiy detalni o'zida mujassamlashtirgan mavzu sifatida baholangan. O'rganishlar davomida tahlil qilingan avtobus, deraza, tun, qum va tuproq, bosh, qilich kabi o'ttizga yaqin tanlangan detallar shoirning asl erk, ozod va baxtli hayot haqidagi qarashlarini ifodalashga xizmat qilgani bayon etildi. Shoir she'riyatidagi aynan Istiqlol mavzusi keng adabiyotshunoslik, qolaversa, ijod ixlosmandlariga e'tiborli tomon bo'lgani uchun ham uni yoritishda foydalanilgan ilmiy, badiiy manbalar salmoq jihatidan ko'zga ko'rinarlidir.

¹ Абдуллаев О. Ўткир сўз қолмаса, ҳеч нарса қолмас. //Мустақиллик даври адабиёти. –Т.: Ғофур Ғулом, 2006. 220-bet.

Qolaversa, bu bobni mazkur bitiruv malakaviy ishning o'zagi deb baholash mumkin.

XULOSA.

O'tgan asrning 80-yillarida o'zbek adabiyotiga kirib kelgan ijodkorlar orasida Shavkat Rahmon o'zining dadil ovozi, isyonkorlik ruhi bilan ajralib turadi. U butun ijodi davomida o'zining "Shoirlik jasorat so'zining tarjimasidir" degan fikriga qat'iy amal qilib yashadi va ijod qildi.

Sh. Rahmon Sho'rolar davrida xalqining yumuq ko'zini ochish, ojizona ruhini uyg'otish, olamni va odamni g'afldan ogohlantirish istagida isyonkorlik ohangi bilan sug'orilgan shiddatli she'rlarni yaratgan bo'lsa, istiqlol yillarida mustaqillikni mustahkamlash, uning qadriga yetish g'oyasini ilgari suradi. Shoir o'z she'rlarida ifodalagan g'oyaviy fikrini dastlabki yillarda ramziy timsolllar va detallar vositasida ilgar surgan bo'lsa, keyinroq oshkora aytishga jur'at qildi. Xususan, shoir ijodida namoyon bo'lgan "kun, tun, nur, zulmat" obrazlari bora-bora "erk, ozodlik, istiqlol" singari aniq nomlar bilan ayon bo'ldi. Uning she'riyatida, eng avvalo, vatan, ozodlik, millat mavzulari ustuvorlik qildi. Shoir yashagan davrning o'z millati hayotida o'ta oqsoqligi, uxloq xalqni tezroq uyg'otish tashvishi, rost so'zni aytishga ishtiyoq uni bir zum bo'lsa-da, tark etmadi. E'tiborli jihati, Shavkat Rahmon baxt haqida, dard haqida, bahor yoki kuz, hatto havolar haqida yozganda ham Vatanga bo'lgan ishq namoyon bo'laverdi. Bu esa o'tkir ko'zli shoirning har zarrada yurt aksini ko'ra olganidan bo'lib, har qaysi davr shoiri ibrat olsa, o'rgansa, arzigulik fazilatdir.

Mazkur BMI bo'yicha quyidagilar amalga oshirilib, tegishli xulosalar chiqarildi:

- ish davomida, eng avvalo, badiiy detal, uning turlari va badiiy asarda tutgan o'rni har tomonlama o'rganildi;
- badiiy detal nazariyasiga oid turli qarashlar taqqoslash va umumlashtirish yo'li bilan tahlil qilindi;
- nasrdan farqli ravishda lirikadagi badiiy detalning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi;

– badiiy detalning she’rda shoir maqsadi va qarashlarini, ma’lum mavzu bo’yicha qat’iy xulosalarining ifodalovchisi ekanligi, she’rning emotsional ta’sirini oshirishga xizmat qilishi Shavkat Rahmon she’rlari misolida o’rganildi;

– o’zbek adabiyotshunos olimlari va keng jamoatchilik vakillarining Shavkat Rahmon she’riyatining uslub qirralari va shoirning xos badiiy detallari haqida qarashlari atroflicha tahlil qilindi;

– Shavkat Rahmon she’riyatida keng qo’llangan badiiy detallar ketma-ketligi tuzilib, she’r tematikasi bo’yicha xoslanishi Istiqlol mavzusidagi she’rlar misolida tadqiq qilindi;

– Sh. Rahmon she’riyatida ona yurt, o’zbek xalqi, buyuk ajdodlarimiz timsolini o’zida aks ettiruvchi tog’, daraxt, tosh singari badiiy detallar alohida o’rganildi va she’riy misollar bilan dalillandi;

– Istiqlol mavzusini yoritish, Turkiston va turkiylar erki haqidagi da’vatlar aks ettirilgan qarsak, avtobus, kun, tun, shamol, yomg’ir, quyosh, tuproq, qum, it, bulbul, kishan, qilich, deraza, qafas, sovut-qalqon singari 30 dan ortiq detallar sharhlendi;

– Prezidentimiz I. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida keltirilgan loqaydlik va beg’amlik kabi illatlar haqidagi o’tkir mushohada va fikrlarga Sh. Rahmon she’rlaridagi uyg’oq yashash haqidagi da’vat va chaqiriqlardagi uyg’unlik misollar asosida o’rganildi;

– mazkur ish Shavkat Rahmon she’rlari va uning badiiyati haqidagi hozirgacha mavjud bo’lgan ilmiy, adabiy qarashlardan foydalanish bilan birga mustaqil yondashuv va erkin mulohazalar asosida tadqiq qilindi.

Ta’kidlash kerakki, Shavkat Rahmon she’riyati shunchaki she’rlar, to’plamlar jamlanmasi emas. U chuqur falsafiy, ruhiy, ijtimoiy-ma’naviy haqiqatlarning qog’ozdagi aksidir. Butun ijodi, butun o’y-hayoli, qayg’ulari, dardlari bilan aziz vatan sari talpingan, suygani ham, sog’ingani ham shu makon bo’lgan, umrining mazmunini Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik so’zlari zamiriga joylagan shoirning yozganlarida zarracha soxtalik yo’q. Shoirning badiiy detallarigina emas, u qo’llagan har bir so’z she’rxonni ishontira olgan. Shavkat Rahmon she’riyati

turfa tahlillar, mulohazalar, turfa izlanish va xulosalar bilan yanada teranlashib, oydinlashib boraveradi.

Bir soʻz bilan aytganda, Shavkat Rahmon degan sheʼriyat, hech shubhasiz, yangi va uygʻoq hayotga chorlovlaridir. Bu haqiqatni unutmagan holda aytish mumkinki, badiiy detallarni samarali, eng muhimi, lirik asar mohiyatidan kelib chiqib, oʻz oʻrnida qoʻllay olgan Sh. Rahmonning bu boradagi mahorati, oʻziga xos qirralari yana koʻplab ilmiy tadqiqotlarga asos boʻla oladi.

Shavkat Rahmon sheʼriyati va uning badiiy imkoniyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan ushbu tadqiqot ishini “Shavkat Rahmonni xotirlab” kitobida qayd etilgan quyidagi fikrlar bilan yakunlashni lozim, deb topdik: “XX asr oʻzbek sheʼriyatini bir kitob deb olsak, uning oxirgi sahifalari Shavkat Rahmon va uning tengdoshlari ijodidan tashkil topgan. Mustaqillik arafasidagi va hurriyat davri oʻzbek sheʼriyatining asosiy ruhi – Shavkat Rahmon sheʼrlari ruhi bilan uzviy payvasta. Binobarin, keyingi asr soʻz sanʼati uchun u oʻziga xos koʻprik vazifasini oʻtaydi. Demak, Shavkat Rahmon ijodini teran tadqiq etish hozirgi adabiyot ilmi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.”¹ Bizning mazkur tadqiqot ishimiz ana shu vazifasini ado etish yoʻlidagi kichik bir qadamdir.

¹ З. Исомиддинов. Уч учрашув. //Шавкат Раҳмонни хотирлаб. –Т.: Шарқ, 2012. 63-бет.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. –T.: Fan, 1978-1979.
3. Ali U. Ko'ngilga sayr. –T.: Yangi asr avlodi, 2009.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –T.: O'zbekiston, 2002.
5. Hamdamov U. Ijodkor va davr. //O'zbek tili va adabiyoti, 2002. №6.
6. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. –Toshkent: Adib, 2012.
7. Mustaqillik davri adabiyoti. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2006.
8. Namozov M. Tumanlarni qo'porar tog'lar. //Vatan, 1995, №22.
9. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
10. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. –T.: Fan, 2007.
11. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2010.
12. Rahmon Sh. Rangin lahzalar. –Toshkent: SHarq, 1978.
13. Rahmon Sh. Gullayotgan toSh. –Toshkent, 1985.
14. Rahmon Sh. Uyg'oq tog'lar. –Toshkent, 1986.
15. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997
16. Rahmon Sh. Abadiyat oralab. –Toshkent: Movaraunnahr, 2012.
17. Raufxon N. M. Shaxsiyatga ko'chgan she'riyat. 2011, №4.
18. Solijonov Y. Hozirgi o'zbek lirikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. FDU, 2009.
19. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Darslik. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
20. Umurov S. Detal va tafsilot. //Sovet maktabi, 1966. №1.
21. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
22. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: “O'AJBNT” markazi, 2003.
23. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

24. O'zbek adabiy tanqidi. Adabiy-tanqidiy maqolalar. –T.: Turon-Iqbol, 2011.
25. G'aniev I., Afoqova N., G'anieva A. Shavkat Rahmon olami. –Toshkent: Akademyashr, 2013.
26. G'ofurov I. She'riyat – izlanish demak. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
27. Shavkat Rahmonni xotirlab. –Toshkent: Sharq, 2012.
28. [http:// ziyonet.uz](http://ziyonet.uz) internet sayti.
29. [http:// kh-davron.uz](http://kh-davron.uz) internet sayti.
30. [http:// e-adabiyot.uz](http://e-adabiyot.uz) internet sayti.